

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet dekani

_____ f.f.d. **S. Abdullayev**

“ _____ ” _____ 2018-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
4-bosqich 401-guruh talabasi **Nazarova Marhabo Jaloliddin qizining**
“**Alisher Navoiy asarlari tilida oziq-ovqat nomlari**” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

_____ **f.f.n.T.Tog‘ayev**

O‘zbek tilshunosligi
kafedrasida o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ **A. Ubaydullayev**

O‘zbek adabiyoti tarixi
kafedrasida dotsenti, f.f.n.

_____ **H.Homidiy**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi

kafedrasida mudiri

_____ f.f.d. **M. Qurbonova**

“ _____ ” _____ 2018-yil

TOSHKENT

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ НОМЛАРИ

МУНДАРИЖА:

	КИРИШ.....	
I БОБ.	ОЗИҚ-ОВҚАТ НОМЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ҚАТЛАМЛАРИ	
1.1.	Алишер Навоий асарларидаги ўз қатлам таом номлари	
1.2.	Ўзлашган қатлам озиқ-овқат номлари	
II БОБ.	2-БОБ. НАВОИЙ АСАРЛАРИДА МАВЖУД ОЗИҚ-ОВҚАТ НОМЛАРИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ	
2.1.	Қандай масалликдан тайёрланишига кўра таом номлари:	
2.1.1	Ун ёки хамирдан тайёрланадиган таом номлари	
2.1.2.	Дон маҳсулотларидан тайёрланадиган таом номлари	
2.1.3.	Гўшtdан тайёрланадиган таом номлари	
2.1.4.	Сут маҳсулотлари ва улардан тайёрланадиган таом номлари	
2.1.5	Аралаш маҳсулотлардан тайёрланадиган таом номлари	
2.2.	Ширинлик ва қандолат маҳсулотлари номлари	
	ХУЛОСА	
	Фойдаланилган адабиётлар	
	ИЛОВА	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy qiymatini belgilash barobarida yozma yodgorliklarning til xususiyatlarini o'rganish filologiya sohasining asosiy masalalaridan hisoblanadi. “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”¹.

Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. U buyuk aql egasi, chin ma'nosi bilan genial shoir, mutafakkir va ulug' gumanist edi. Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida qardosh va qo'shni xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga zo'r ta'sir ko'rsatib keldi. O'zbek adabiy tili so'nggi besh asr davomida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg'or an'alarini davom ettirdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, “Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz”²

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universitetini tashkil qilish to'g'risidagi farmonida (2016-yil 13-may) ushbu oliy o'quv yurtining ona tili va adabiyotimizni taraqqiy ettirish bilan bog'liq maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Xususan, Farmon muqaddimasida “...birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.-B. 30.

² O'sha nanba.-B. 31.

darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turganini qayd etish lozim” deyilgan. Ushbu farmon Navoiy ijodini ham yanada chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Eski o‘zbek tilining boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarning Navoiy ijodi misolida yaqqol ro‘yobga chiqishi tilshunoslarni adib merosining til xususiyatlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etishga undab kelmoqda.

Tarixiy-badiiy manbalar leksikasini o‘rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug‘aviy sath taraqqiyoti, leksik birliklar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir. Yozma yodgorliklarda muayyan davr adabiy tili lug‘at fondining asosiy qismi aks etadi.

O‘zbek tilshunosligida Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha turli sohalarga doir so‘z va terminlar leksik nuqtayi nazardan maxsus o‘rganilgan bo‘lsa-da, shoir asarlari tilining oziq-ovqat leksikasi alohida tadqiqot mavzusi bo‘lmagan. Taom nomlari tarixini tadqiq etish, avvalo, fan sohasida, qolaversa, xalqimizning ma'naviy - madaniy merosini tiklash borasida o‘z o‘rniga ega.

Alisher Navoiyning boshqa sohadagi singari tilshunoslik sohasidagi xizmati ham g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Tishunoslikka doir fikrlari ulug‘ siymoning har bir asarida, jumladan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Teng yuq so‘z ustasi Alisher Navoiy o‘zining lug‘atchilik va tilshunoslik sohasidagi yarim asrlik tajribasini “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida umumlashtiradi. Shuningdek, uning turkiy tilda yaratgan ulkan badiiy merosi ham asrlar osha milliy tilimiz leksikasining asosi sifatida ahamiyatlidir.

Oziq-ovqat – taomlar turlari inson turmushida eng muhim o‘rin tutadi. Insonlarning jamiyatdagi o‘rni, turmush darajasi, ma'naviy dunyosining ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladigan oziq-ovqat nomlari tilimizda qachon paydo bo‘lgan, ularning etimologiyasi, semantik tarkibi kabilar muhim hisoblanadi. Navoiy asarlarida qo‘llangan oziq-ovqat – taom nomlarini aniqlash, o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga mansub leksik birliklarni tahlil qilish tilshunosligimiz uchun muhim

ma'lumotlar beradi. Shuningdek, xalqimizning hayot tarzi, madaniy-maishiy darajasini belgilash uchun ham qimmatlidir.

Xalqimizning turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy qatlamida asrlar davomida iste'molda bo'lgan taom nomlarini to'plash va ularning lisoniy: leksik-semantik, tarixiy-etimologik, yasalish, qo'llanish xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik faning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois o'zbek tilidagi taom nomlari tadqiqiga doir mazkur bitiruv-malakaviy ishimiz dolzarb himoblanadi. Zero, Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat – taom nomlarini, ularning xillarini o'rganish o'zbek tili leksik tarkibi, uning grammatik doirasi va til tarixi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida oziq-ovqat – taom nomlari ham ba'zi ishlarning o'rganish ob'ekti bo'lgan³. Tadqiqotchi olim M. Xudayarovanning “O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog'iston hududi materiallari asosida) nomzodlik dissertatsiyasida Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining leksik xususiyatlari o'rganilgan. Ishda muayyan hudud xalq an'anaviy taom nomlari, shuningdek, shirinlik, qandolat nomlari lisoniy tadqiq etilgan, shuningdek, taom nomlarining tarixiy ildizlari haqida ham fikr yuritilgan. O'zbek tili lug'at tarkibida ba'zi unutilayozgan til elementlari, mavzuga doir til tarixidagi leksik-grammatik hodisalarga ham e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini N.Ikromova o'rgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o'z tadqiqotiga kiritgan⁴.

O'zbek xalq shevalari o'rganilgan ishlarida ham ayrim oziq-ovqat – taom nomlari haqida ma'lumotlar berilgan⁵.

Professor H.Dadaboevning o'tgan yili chop etilgan “Devonu lug'atit turkning til xususiyatlari” nomli monografiyasida eski turkiy tilning fonetik, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan⁶. Kitobda lug'at so'z boyligidagi oziq-

³ Xudayarova M. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -T.: 2008.

⁴ Ikromova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1983. – 168 s.

⁵ O'zbek xalq shevalari lug'ati /Mas'ul muharrir: Sh.Shoabdurahmonov. –T.: Fan, 1971; G'aybullaev S. Qorako'l shevasining tarovati. –T.: Nihol, 2017.

⁶ Dadaboyev H. “Devonu lug'atit turk”ning til xususiyatlari. –T.: TDSH, 2017, 66-75-betlar.

ovqat mahsulotlari, taom va ichimlik nomlarini ifodalovchi leksemalar ham tahlil qilingan.

Taom nomlari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham qiziqтира boshladi. Jumladan, tarixchilar ham o‘zbek xalqining urf-odatları, turmush tarzi, madaniyatining o‘ziga xosligini o‘rganish maqsadida taom nomlarini etnografik leksikaning bir qismi sifatida o‘rganishgan. Shunday ishlardan K.Shoniyozov⁷ va taom nomlarini tarixiy-etnografik jihatdan o‘rgangan M.Qurbonovalarning⁸ tadqiqotini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbek taomlarining turlari va ularning tayyorlash usullari bo‘yicha ommabop kitoblar ham nashr qilingan⁹.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning maqsadi Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan oziq-ovqat, taom nomlarini o‘rganish, lisoniy tahlil qilish, bu sohadagi leksik boyliklarni o‘rni bilan o‘zbek tilining tarixiy va hozirgi zamondagi holatlari bilan qiyoslashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

- Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat – taom nomlarini to‘plash va lisoniy tahlil qilish;
- Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat nomlarining turkiy qatlamga tegishlilarini aniqlash;
- o‘zlashgan qatlamga mansub taom nomlarini belgilash;
- taom nomlarining yasaliş yo‘llarini ko‘rsatish;
- oziq-ovqat nomlarining leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish;
- oziq-ovqat – taom nomlarini mavzuviy guruhlar jihatdan tasnif qilish;
- Navoiy asarlari leksikasidagi oziq-ovqat – taom nomlarining qadimiy variantlarini topish va qiyosiy tahlil qilish;

⁷ Шаниязов К. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Т.: 1972. – 106 с.

⁸ Qurbonova M. Buxoro vohasi o‘zbek va tojiklarining an‘anaviy taomlari: Tarix fanlari nomzodi ... dis. – Т.: 1994. – 158 b.

⁹ Mahmudov K. O‘zbek tansiq taomlari. – Т.: Mehnat, 1989. – 342 b; Do‘stjanov B. Xorazm taomlari. – Т.: O‘zbekiston, 1994. – 88 b.

- taom nomlarining hozirgi o‘zbek tili va boshqa turkiy tillaridagi ana shunday nomlarga munosabatini aniqlash va qiyosiy tadqiq qilish

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ektini Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan oziq-ovqat – taom nomlari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti o‘rganilayotgan ob'ektdagi taom nomlarining lingvistik tahlili hisoblanadi.

BMIning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat nomlari to‘plandi va ular ilk bor o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansublik, so‘z yasalishi, lug‘aviy-ma‘noviy jihatdan tadqiq qilindi. Alisher Navoiy asarlarida uchragan 50 ta oziq-ovqat – taom nomlari ilk marotaba tahlil qilindi. Shu sohada qilingan ishlarga, lug‘at materiallariga tanqidiy yondashib, oziq-ovqat nomlarining etimologiyasiga oid ba‘zi yangi qarashlar bildirildi. Taom nomlarining qisqacha izohli lug‘ati tuzib chiqildi.

BMIning nazariy va amaliy ahamiyati. Navoiy asarlari tilidagi oziq-ovqat, taom nomlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilning leksik tizimini zarur materiallar evaziga boyishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan lug‘atlar tuzishda, ta'limning turli bosqichlarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

Ishning nazariy asosi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlarining milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda tarixni o‘rganishga oid asarlari ishning nazariy asosini tashkil etadi. Shuningdek, BMIda qo‘yilgan masalalarni yoritishda hozirgi o‘zbek tilshunosligi erishgan ilmiy-nazariy yutuqlarga, yangicha qarashlarga, ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

Tadqiqotning metodologik asoslarini tarixiylik, izchillik, xolisona baho berish tashkil qiladi. Tadqiqotda qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi ikki bob va to‘rt fasl, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 67 bet.

1-BOB. TAOM NOMLARINING TARIXIY QATLAMLARI

1.1. Alisher Navoiy asarlaridagi o‘z qatlam taom nomlari

Har bir tilning lug‘at tarkibi tarixiy taraqqiyot natijasida boyib boradi. Lug‘at tarkibining boyib borishi tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshishi yaxshi ayon.

Umumxalq tilining rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqalarining kengayishiga bog‘liq holda davom etadi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, boshqa chet til unsurlarining kirib, o‘zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning o‘zaro aloqalari natijasida yangi g‘oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o‘ziga xos taraqqiy etishiga, til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi¹⁰. Zero, o‘zaro aloqada bo‘lgan xalqlar tillarining o‘zaro ta'sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday ta'sir, aloqa leksikada samarali kechishi ayni haqiqatdir. Xalqlarning o‘zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta'siri turli davr va sharoitlarda o‘ziga xos ko‘rinishda davom etadi. Bunday o‘zaro ta'sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo‘lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba'zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda ro‘y bersa, uni ma'lum qonun-qoidalar asosida yo‘lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi¹¹.

Ma'lumki, tilning lug‘at tarkibi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Shu bois til leksikasining tarixiy shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini bilish uchun lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o‘rganish, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur. Bu, albatta, til lug‘at tarkibini ilmiy tushunish, ilmiy tahlil qilish borasida amalga oshiriladi. Til lug‘at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya'ni so‘zlarni genetik manbalariga ko‘ra tadqiq etish o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga ko‘maklashadi. Natijada, bunday izlanishlar o‘zbek tili so‘z boyligi, grammatik qurilishining

¹⁰ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 89-90.

¹¹ Ўзбек адабий тилининг таракқиети. 3-жилд. Лексика. –Т.: ФАН, 1991. –Б. 152.

tarixiy yo‘llarini anglashda nihoyatda muhimdir¹². Binobarin, tilning leksik tarkibini genealogik manbalariga muvofiq guruhlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tildagi leksik qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so‘z ma’nolarining o‘zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul¹³.

O‘zbek tilshunosligida leksik qatlamlar yuzasidan bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan¹⁴. Biz ushbu bobda Alisher Navoiy asarlaridagi taom nomlarini genealogik jihatdan yoritishni maqsad qildik.

Ma'lumki, o‘z qatlam har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so‘zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so‘z yasash yo‘li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo‘lgan lug‘aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so‘zlar hisobiga boyishi¹⁵.

O‘z qatlam deganda, aslan shu tilniki bo‘lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o‘z affiks bilan boshqa til so‘zlaridan hosil qilingan leksemalar tushuniladi¹⁶. Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan o‘z qatlamga doir taom nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin: a) tub turkiy so‘zlar; b) tub turkiy so‘zlardan yasalgan yangi leksemalar; v) o‘zlashmalardan turkiy qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan yuzaga kelgan so‘zlar.

Navoiy asarlari tilida taomga doir biz aniqlagan 56 leksema qo‘llanilgan bo‘lib, shundan 30 tasini turkiy so‘zlar, 19 tasini forsiy, 6 tasini arabiy, 1 tasini xitoycha 2 tasini hindcha o‘zlashmalar tashkil etadi. Demakki, taomga oid aniqlangan leksik birliklarning 53 % i turkiy so‘zlardan iborat.

¹² Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: FAN, 1985. –B. 54.

¹³ Abdushukurov B. «Qisasi Rabg‘uziy» leksikasi. Filol. f. d....diss. avtoreferati. –T.: 2017. –B. 17.

¹⁴ Mamajonova G. O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba’zi masalalari. –T.: FAN, 1978. 87 b; Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. –T.: FAN, 1983. 157 b; Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: FAN, 1985. 198 b.; Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. –T.: O‘zbekiston, 1992. 399 b.; Xolmonova Z. «Boburnoma» leksikasi. –T.: FAN, 2007. 175 b.;

¹⁵ O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uch jildlik. –T.: FAN, 1991. –B. 128.

¹⁶ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston, 1992. –B. 173.

Turkiy taom nomlar

1. O'tmak – non (ANATIL, 3 j. 612-bet).
2. Chalpak – chalpak (ANATIL, 3 j. 119--bet).
3. Ko'moch / Kumoch – qo'rga ko'mib pishiriladigan non.
4. Kuloch - 1. Holvaga o'xshash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha. (nabotiy kuloch birikmasi uchraydi)
5. Umoch (yovg'on umoch).
6. Jug'rot (qatiq) (NAL. 237-bet).
7. Qatlama – qatlama (ANATIL, 4 j. 40-bet).
8. Quymog' – quymoq (ANATIL, 4 j. 75-bet).
9. Tutmoch – pishgan taom turi; xamir oshi, ugra osh. (ANATIL, 3 j. 162-bet).
10. Ushoq osh – ugra osh, tuppa (NAL, 628-bet).
11. Bulamog' – bulamoq, atala (ANATIL, 1 j. 331-bet).
12. Bug'ro – bug'doyni oqlab pishiriladigan va katta yig'inda tortiladigan ovqat (NAL, 139-bet).
13. Jijig'lig' osh – jijig'lig' - go'ja osh, taom nomi (ANATIL: 1 j. 540-bet).
14. Qovurmoch – qovurmoch, qovurilgan don, bo'g'doy (ANATIL, 4 j. 59-bet).
15. Tolg'on/tolqon – talqon (ANATIL, 3 j. 242-bet.)
16. Sut – sut
17. Suzma (ANATIL, 3 j. 120-bet).
18. Qaymog' – qaymoq (ANATIL, 4 j. 22-bet).
19. Qatiq – qatiq.
20. Panir – pishloq (NAL. 500-bet).
21. Qimiz – qimiz (ANATIL, 52-bet).
22. Qurut – qurut (ANATIL, 4 j. 540-bet).
23. Yog' – yog'.
24. Sarig' yog' – saryog'.
25. Qo'y uchasi – biqin go'shti.
26. Uloba – ovqatlarning bir turi (ANATIL, 3 j. 285-bet).
27. Urkamoch – taom turlaridan bir (ANATIL, 3 j. 297-bet)

28. So‘kboch – so‘kosh (ANATIL, 3 j., 140-bet.

29. Et – go‘sh.

30. Qazi – qazi.

31. Shilon / Shulon – shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)

(Izoh: ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati; NAL – Navoiy asarlari lug‘ati).

So‘z turmushdagi yangiliklarni, kishilar faoliyatini, voqea-hodisalarni ifodalovchi vositadir. Tilda hayot uchun zarur turli yangi so‘zlar paydo bo‘la borganidek, turmush uchun keraksiz so‘zlar iste‘moldan chiqib ketadi. Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli iste‘moldan chiqqan so‘z va iboralar lingvistikada arxaizm deb ataladi¹⁷. Bizningcha, **bug‘ro** va **shilon** kabi.

Leksema ifodalagan tushunchani anglatuvchi boshqa so‘zning shakllanishi natijasida (u ichki imkoniyat asosida yasalgan yoki olinma leksema bo‘lishi mumkin) uning iste‘mol doirasi toraya boradi. Bir qator semalari bilan faol qo‘llangan so‘zlar semantikasida torayish kuzatiladi. Keng qo‘llanilmagan leksemalar iste‘moldan chiqadi, arxaizmga aylanadi. Bu jarayon tilning ichki qonuniyati asosida yuz beradi¹⁸. Arxaik bo‘lmagan so‘zning eskirgan ma‘nolari turli sabablar ta‘sirida yuzaga keladi. Ulardan ba‘zilari yaqqol ko‘zga tashlanib tursa, ayrimlari tilda yashirin holda bo‘ladi.

Bundan tashqari, eski o‘zbek tilida muomalada bo‘lgan ayrim so‘zlar keyingi davr manbalarida o‘z ma‘nosini davom ettirish bilan birga, yangi leksemalar hosil qilishda faol ishtirok qilishi mumkin.

1.1.1. Tub turkiy taom nomlari

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Shu sababli ham o‘zbek tili so‘z boyligining qadimiy o‘z negizi aslida turkiy tillarning o‘ziniki bo‘lgan tub turkiy so‘zlardan iborat. Ko‘rinadiki, tub so‘zni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so‘zning

¹⁷ Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. -T.: Fan, 1959. –B. 180.

¹⁸ Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. –T.: Fan, 2008. –B. 116

genetik jihatdan o'sha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir¹⁹.

Ma'lumki, Navoiy asarlari tilida iste'molda bo'lgan tub turkiy taom nomlarining tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, mazkur yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali xalqimiz tarixi va tilimiz taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz²⁰. Shu nuqtai nazardan, hazrat Navoiy asarlari so'z boyligini eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar bilan qiyosiy o'rganish asardagi taom nomlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Tub turkiy taom nomlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish lozim:

bug'ro – bug'doyni oqlab pishiriladigan va katta yig'inda tortiladigan ovqat”
(NAL, 139-bet);

sut – sut;

panir – pishloq (NAL. 500-b.; 17-jild,170-b. HPM.);

yog' – (MAT, 17-jild, 410-bet).

qazi – otning to'sh va peshnop go'shti; shunday go'shtdan otning yo'g'on ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti. (O'TIL, 5 j.)

shilon/shulon – shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)

Nomlari qayd etilgan taom nomlari faqat o'zakdan iborat bo'lib, ular biror so'z yasovchi qo'shimcha bilan hosil qilinmagan.

1.1.2. Tub turkiy so'zlardan yasalgan taomga oid leksemalari

Tilshunoslikda muayyan tilga xos so'z yasash usullari bilan so'z yasovchi vositalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish til leksikasining boyishidagi eng yetakchi yo'llardan biri sifatida talqin qilinadi. Ichki resurslar asosida so'z yasash, asosan, tilning o'ziga xos so'z yasash usullariga tayangan holda so'z yasovchi vositalar ko'magida amalga oshadi²¹.

¹⁹ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: FAN, 1985. –B. 135.

²⁰ Alieyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1994. –B. 115.

²¹ Yo'ldoshev I. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. –T.: FAN, 2004. –B. 99.

Navoiy asarlari tilida soʻzlar shu asosda yasalgan. Tilda affiksatsiya yoʻli bilan yangi soʻzlar hosil qilish eng faol usullardan sanaladi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Navoiy asarlari soʻz boyligida ham tub oʻzakdan turkiy qoʻshimchalar²² orqali yasalgan taom nomlari bilan bogʻliq leksemalar talaygina. Quyida ular xususida toʻxtalib oʻtamiz:

1) -či/-chi affiksi vositasida otlardan yasalgan otlar. Bunda ushbu qoʻshimcha yordamida kasb-kor, yumush egasi maʼnosini anglatuvchi leksemalar hosil qilingan: ašči – «oshpaz» (<aš – «oziq-ovqat, yegulik»), etmäkči – «novvoy» (<etmäk – «non»). Misol: *Etmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq*²³; šilonči - «podshoh dasturxonchisi» (<šilon – «koʻpchilikka tayyorlanadigan ovqat»)²⁴.

2) -liġ/-lig//-liq/-lik//-luġ/-lüg// -luq/-lük affiksi ishtirokida asosan, ot, sifat, feʼldan oʻzi qoʻshilgan oʻzakdan anglashilgan narsaga egalik maʼnosini bildiruvchi mavhum otlar hamda kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi soʻzlar hosil qilingan:

a) ot turkumidan yasalgan otlar: ašliq – «oziq-ovqat, yegulik don» (<aš – «ovqat»); yegulik – «ovqat, yegulik» (<ye- – «emoq»);

b) sifat turkumidan yasalgan otlar: aqliq – «oqlik» (<aq – «oq»).

3) -čilik affiksi ishtirokida ot turkumidan yasalgan otlar: oʻtmakchilik;

4) -k qoʻshimchasi feʼl bilan birikib taom oti yasagan: chäl- + pä = chälpä + k = chälpäk – «xamirni yupqa yoyib, yogʻda pishiriladigan ovqat»²⁵.

5) -ač/-äč: kömäč – choʻgʻ kuliga koʻmib pishiriladigan non (<köm- – «koʻmmoq»); tütmäč – ugra osh, xamir osh (<tüt- – «tutmoq»);

6) -ma/-mä: süzmä – «suzma» (<süz- – «suzmoq»); «qätlämä» (<qatla- – «qatlamoq»);

²² Қаранг: Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков: Морфология. –М.: Наука, 1988. 556 с.; XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили: Морфология. –Т.: ФАН, 1986. 286 б.

²³ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14 ж., 35-б.

²⁴ Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихидан материаллар. –Т.: ТошДУ, 1983, 14-15-б.

²⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1 ж. –Т.: Университет, 2000. –Б. 409.

7) -siz/-siz//-suz/-süz qo‘shimchasi otlardan o‘zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni anglatuvchi sifatlarni hosil qilgan: «sutsiz» (<süt – «sut»); «qatiqsiz» (<qatiq – «qatiq»);

1.1.3. O‘zlashmalarga turkiy qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan yasalgan so‘zlar

Har bir til so‘z yasash, uni yangi ma'nolarda qo‘llash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqari, tashqi omillar ta'sirida, ya'ni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanib, boyib boradi. Albatta, bu jarayon muayyan til qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

Jahonda hech bir til yo‘qki, uning lug‘at tarkibi faqat o‘z so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lsin. Boshqa tillardan olingan so‘zlar yo o‘sha tilda o‘z shaklini qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlaydi yoki uning leksik tizimi, tabiati, grammatik qurilishi, so‘z yasalishi va imlo qoidalariga uyg‘unlashadi²⁶.

O‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibidagi leksemalar tarixiy shakllanish jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo‘lmay, balki fors-tojik, arab, mo‘g‘ul, rus tillaridan, shuningdek, uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan kirib kelgan so‘zlar ham uchraydi. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solsak, mazkur so‘zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar bois o‘zlashganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, forsiy istilohlar o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, bir-biri bilan ijtimoiy va madaniy munosabatda bo‘lib kelganligi natijasida, arabcha leksemalar esa, asosan, kitobiy til va forsiy til, shuningdek, qisman og‘zaki nutq orqali kirib kelgan.

XV asr manbasi Navoiy asarlarida ham ko‘pgina forsiy va arabcha taomga oid so‘zlarni kuzatish mumkin. Ushbu o‘zlashmalarning ma'lum qismi shoir asarlari tiliga shu darajada singib ketganki, ular turkiy qo‘shimchalar bilan birikib, yangi so‘zlar hosil qilishda faol qatnashgan va turkiy leksemalar bilan baravar darajada qo‘llanilgan. Quyida turkiy affikslar yordamida forsiy va arabcha leksemalardan yangi so‘zlar yasalgan.

1. Ismdan ot yasovchi qo‘shimchalar:

²⁶ Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 34.

-liğ/-lig//-liq/-lik//-luğ/-lüg//-luq/-lük affiksi kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi leksemalar hosil qilishda ham qatnashgan:

a) arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilish orqali hosil qilingan so‘zlar: halvogarlik – halvo pishirish kasbi, hunari. *Mavlono Ofotiy...halvogarlikni mansub qilurlar.* (ANATIL, 4 j. 144-b. “Majolisun nabois”dan).

b) **-či/-či** affiksi forsiy va arabcha so‘zlar bilan birgalikda kasb-kor, yumush egasi ma'nosini anglatuvchi otlarni hosil qilgan: hālvāči – halvochi, qandolatchi – podsho va amirlar saroyidagi shirinpazlik mansabi.

d) **-siz/siz/suz/-süz.** Mazkur affiks asosan o‘zlashma otlarga qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qiladi: mevasiz yig‘och.

Keltirilgan misollardan va manbalar leksikasini o‘rganish mobaynida shu narsa ayon bo‘ldiki, qissa tilida turkiy hamda o‘zlashma lisoniy birliklardan yangi so‘zlar hosil qilishda ot yasovchi **-liğ/-lig//-liq/-lik//-luğ/-lüg//-luq/-lük** ishtirok etgan. Demak, turkiy til lug‘at tarkibining boyib borish jarayonini kuzatishda, o‘zga tillarning turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili rivojida tutgan o‘rnini aniqlashda, shuningdek, ekstralingvistik omillarni to‘g‘ri belgilashda Navoiy asarlari til xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. O‘zlashgan qatlam oziq-ovqat nomlari

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir bo‘ladi. Buning natijasida tillarning lug‘at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so‘zlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi bilan hamohang tarzda o‘zbek tili ham o‘zining tarixiy rivojlanishida ko‘plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo‘ldi. Shu bois, o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma'lum qismini o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi²⁷.

O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki imkoniyatlari muhim manba hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hiech bir til o‘z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko‘rmaganidek, o‘zbek tili uchun ham faqat o‘z so‘zlari va

²⁷ Ўўлдощев И. Ўўбек китобатчилик терминологияси. –Т.: ФАН, 2004. –Б. 209.

imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O‘zbek tili so‘z boyligining takomillashuvida tashqi manba ham sezilarli o‘rin egallaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi²⁸. Binobarin, turli tillarga mansub xalqlarning o‘zaro hamkorligi, qo‘shnichilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyoti, birinchi navbatda, leksikasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi tabiiy. Pirovardida so‘z almashish va o‘zlashtirish holatlari yuz beradi. Ushbu jarayon tarixiy sharoitlarga bog‘liq tarzda turlicha kechadi.

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o‘zbek adabiy tili uchun ham so‘z o‘zlashtirish xarakterli hisoblanadi. Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, oziq-ovqat, taom terminologiyasi forsiy, arabiy, mo‘g‘ulcha va hatto hindcha so‘zlar hisobiga boyiganini ko‘ramiz.

Alisher Navoiy asarlarida, biz aniqlashimizcha, jami 28 ta o‘zlashma qatlamga doir taom leksemasi istifoda etilgan bo‘lib, shundan 18 tasi forsiy, 7 tasi arabcha, 1 tasi xitoycha, 2 tasi hindcha o‘zlashmalardir.

Forsiy o‘zlashmalar. Tarixdan yaxshi ayonki, O‘rta Osiyo hududida azaldan turkiy aholi istiqomat qilgan. O‘rta Osiyo – Ikki daryo oralig‘ida qadimdan forsiy tilda so‘zlashuvchi aholi turkiylar bilan birgalikda yashab kelgan. Shu tariqa, turkiylar bilan eroniyzabon²⁹ aholi o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy aloqa va qo‘shilib ketish hollari yuz bergan.

Turli etnik qatlamlarga mansubligidan qat‘i nazar, O‘rta Osiyo xalqlari asrlar davomida deyarli bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo‘rlikka birgalashib kurashganlar. Bunday madaniy-adabiy aloqalar xalqlarning bir-biriga yanada yaqinlashuviga, hamkorliklarining mustahkamlanishiga olib kelgan³⁰.

E’tirof etish kerakki, XIV-XV asrlarda turkigo‘y adiblar fors-tojik tilini yaxshi bilganlar va har ikkala tilda ijod qilganlar. Demak, forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan: a) o‘zbek va tojik

²⁸ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: ФАН, 1985. –Б. 103.

²⁹ Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣй” лексикаси. Филол.ф.д...дисс. автореферати. -Т.: 2017.

³⁰ Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: ФАН, 1977. –Б.159.

xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi; g) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqeyega ega bo‘lganligi; d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik³¹.

Alisher Navoiy asarlari leksikasida taom nomlariga oid 5489 ta forsiy so‘z qo‘llangan³². Shundan 18 ta taom nomlariga oid leksikani aniqladik. Bu miqdor Navoiy asarlarida turkiycha taom nomlaridan so‘ng ikkinchi o‘rinni ishg‘ol qiladi. Ular quyidagilardir:

1. Non.
2. Osh.
3. Shir – sut.
4. Falla – yangi tuqqan hayvonning dastlabki suti, og‘iz (uviz)ga foydalaniladigan sut. (NAL, 631-bet).
5. Kabob – kabob. (ANATIL, 2 j. 86-bet).
6. Jigar kabob – jigar kabob.
7. Bat kabob – o‘rdak go‘sh tidan kabob (ANATIL, 2 j. 86-bet)
8. Pushti dunba – qo‘y dumbasi.
9. Shakar – shakar (MAT, 2 j., 662-bet).
10. Nabot – novvot.
11. Poludai dushob - asl, toza shinni, uzumdan qilingan toza shinni.
12. Maviz – mayiz.
13. Mavizob - mayiz suvi, sharbat (ANATIL, 188-bet).
14. Bodom- bodom mag‘zi.
15. Shirai bodom – bodom shirasi, qiyomi.
16. Sho‘rba – sho‘rva.
17. Harisa – halim, ko‘pchilikka go‘sh t va bug‘doydan pishirilgan ovqat (NAL, 767-bet).

³¹ Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. –Б. 55.

³² Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983. –Б. 155.

18. Gazak - gazak, zakuska (NAL, 154-bet).

Forsiy taom nomlarining yasalishi

1. Ismdan ot yasovchi qo‘shimchalar:

a) *-voy* affiksi forsiy so‘zlar bilan birgalikda kasb-kor, yumush egasi ma'nosini anglatuvchi otlarni hosil qilgan: *nonvoy*;

b) *-gar* forscha so‘z yasovchi qo‘shimcha arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilishi orqali hosil qilingan so‘zlar: *holvagar* [*a. + f. holva+gar*] – holva qiluvchi, holvachi;

d) *-paz* forscha so‘z yasovchi qo‘shimcha arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilishi orqali hosil qilingan so‘zlar: *holvapaz* [*a. + f. holva+paz*] – holva pishiruvchi, tayyorlovchi, holvachi.

2. Ismga qo‘shilib ot yasovchi so‘zlar:

a) *furush* forscha so‘zi arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilishi orqali hosil qilingan so‘zlar: *holvafurush* [*a. + f. holva+furush*] – holva sotuvchi; holvachi.

Ushbu forsiy birliklar kasb-hunar semalarini ifodalovchi leksemalar hosil qilishda qatnashgan.

3. Qo‘shma otlar: *maviz+ob = mavizob*.

Bulardan tashqari *pushti dunba, shirai bodom, poludai dushob* kabi izofalti birikkan otlar ham uchraydi.

Arabcha o‘zlashmalar. Ma'lumki, o‘zbek tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini bilan aloqador. Arablar VII asrning ikkinchi yarmi - VIII asrda O‘rta Osiyoni bosib olganlaridan so‘ng yerli aholiga majburiy ravishda islom dinini qabul qildirganlar. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari asosan arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Shu tariqa, arab tilining kitobiy til va davlat tili bo‘lib qolish an'anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan³³. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining arab tilini puxta o‘zlashtirishiga, shuningdek, o‘zbek-arab ikki tilliligi (bilingvizm) hodisasining yuzaga kelishiga olib keldi. Arab tilining o‘zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, VII-VIII asrlarda ko‘proq yuz bergan. XIV-XV asr

³³ Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 42.

eski o‘zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil etadi³⁴. Shu bois, Navoiy asarlari tilida ma'lum tarixiy sabablar natijasida arab va fors-tojik tillaridan olingan so‘z va iboralar har qachongidan ham ko‘p. Shoir poetik va ilmiy asarlari tilidagi so‘z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so‘zlar tashkil qiladi, fors-tojik leksik unsurlari ham 18-20 foizgacha boradi³⁵.

Yuqorida qayd etilganidek, turli munosabatlari orqali arab so‘zlari turkiy tillarga³⁶ o‘zlashgani kabi o‘z navbatida turkiy leksemalar ham arab tili lug‘at tarkibidan o‘rin egallagan. Masalan, *qovurma*, *yotoq* singari. Hatto **–chi, -lik, -siz** affiksleri so‘z tarkibida o‘tib, arabcha leksemalarga qo‘shilib, yangi so‘zlar yasagan³⁷.

Arabcha taom nomlari

1. Halim – halim (ANATIL, 144-b.).
2. Qurs – kulcha. (ANATIL, 4 j. 80-b.)
3. Qursi qiyir – qora kulcha.
4. Qursi gazak – aylana, tugarak shakldagi gazak (ANATIL, 4 j, 80-b).
5. Asal, shahd.
6. Fatir; qursi fatir – patir kulcha (NAL. 637-b.
7. Halvo (issiq halvo) (MAT. 17-jild, 415-bet).
8. Taranjabin – yantoq shakari (ANATIL, 3 j., 77-bet).
9. Sikanjabin – sirka murabbo (ANATIL, 3 j.,77-bet).

Xitoycha o‘zlashmalar. Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoyga borib savdo-sotiq qilgan³⁸. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo‘li uzra buddizmning yoyilishi Sharq xalqlarining madaniy aloqalari, sharq tillarining o‘zaro ta'sirini ham ta'minlab berdi. Buni qadimgi xitoy-turk madaniy munosabatlari, adabiy aloqalarida ham kuzatish mumkin. Ayon bo‘ladiki, turklar

³⁴ Қаранг: Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Филол.ф.д...дисс. автореферати. -Т.: 2017.

³⁵ Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи//Навоий ва адабий таъсир масалалари. –Т.: 1968. –Б. 254.

³⁶ Абдуллаев Ф. Арабизми в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1945; Иванов С.Н. Арабизмы в турецком языке. –Л., 1973; Дмитрев Н.К Арабские элементы в башкирском языке//Строй тюркских языков. –М., 1977. –С. 189-201.

³⁷ Захиди А. Слова тюркского происхождения в современном арабском языке. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Баку, 1967. –С. 7.

³⁸ Хўжаев А. Буюк ипак йўли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –Б. 91-92.

bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari qadim tarixga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o‘laroq, turkiy tillar so‘z boyligiga xitoycha o‘zlashmalar kirib kelgan. H. Dadaboevning ta’kidlashicha, “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”da 240 ga yaqin xitoycha leksemalar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati asosan madaniy sohaga taalluqlidir³⁹. Izlanishlarimiz tekshirilayotgan manba tilida taom nomi bilan bog‘liq bitta xitoycha so‘z iste’molida bo‘lganligini ko‘rsatdi.

***Manti** [xit. myan - xamir + ti – go’sht Go’sht va piyoz qiymasini xamirga tugib, qasqonda pishiriladigan ovqat. (O‘TIL, 539).*

Ta’kidlash kerakki, Alisher Navoiy manti so‘zini turkiy tillar sirasida ko‘rsatadi: “Va yana ba’zi yemaklardin qaymog‘ va qatlama va bulamog‘ va qurut va uloba va **mantu** va quymog‘ va urkamochni ham turkcha ayturlar (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild, 17-bet.) Bu hol, bizningcha, kelib chiqishi xitoycha bo‘lgan bu so‘z o‘sha davr eski o‘zbek tiliga turkiy xalqlardan bo‘lgan uyg‘urlarning tilidan o‘zlashgani bilan bog‘liq.

Hindcha o‘zlashmalar o‘rganilayotgan manbada ikkita uchradi:

1) ***amna, umna (mango)*** – Hindistonda xush bo‘y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat;

2) ***tanbul*** – Hindistonda xushbo‘y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat⁴⁰.

I Bobning xulosasi

Navoiy asarlari leksikasining taomga nomlariga oid qismini geneologik jihatdan tahlil etish natijalari quyidagi fikr-mulohazalarga kelish imkonini beradi:

a) manbalarda taomga oid lug‘at tarkibining o‘z qatlami tub (o‘zak) so‘zlar, ular yordamida yasalgan hamda o‘zlashmalardan turkiy affikslar orqali hosil qilingan leksemalardan iborat bo‘lib, ular Navoiy asarlaridagi ovqat nomlarining asosini tashkil etgan. Asar tilida jami **59 ta** taom nomlari qo‘llangani aniqlanib,

³⁹ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. 136.

⁴⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 10-жилд, 479-бет.

shundan **30** tasini turkiy, **17** tasini forsiy, **9** tasini arabiy, **2** tasini hindcha va **1** tasini xitoycha soʻzlar tashkil qiladi;

v) Navoiy asarlari leksikasining boyishida ichki imkoniyatlar, ya'ni turkiy qoʻshimchalar vositasida soʻz yasash usuli mavjud, bunda -či/-či ismlardan ot; -līg/-lig//-līq/-lik//-luğ/-lüg//-luq/-lük asosan, ismlardan ot; -k//-uq/ük//-uğ/üg//-aq/-ağ//-iğ//-ig//-iq/-ik fe'llardan ot, -sīz/-sīz//-suz/-süz otlardan sifat yasashda qatnashadi;

d) oʻrganilayotgan manbalarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar orqali hamda jamiyat hayotining oshxona sohasida yuz bergan oʻzgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun oʻzlashgan xitoycha, hindcha taomga oid soʻzlar ham uchraydi;

g) Navoiy asarlarida qayd etilgan oʻz va oʻzlashma qatlamga oid taomga xos leksik birliklar tahlil qilinganda shu narsa ma'lum boʻldiki, koʻpchilik oziq-ovqat, taom nomlari hozirda ham oʻzining tub ma'nosiga ega.

2-BOB. NAVOIY ASARLARIDA MAVJUD OZIYQ-OVQAT NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tilning lugʻat boyligini tizim sifatida oʻrganishda leksemalarning gipogiperonomik munosabatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega: u tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqeya-hodisalarning tildagi nomlari boʻlgan leksemalarning ma'nolarini va shu ma'nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalar haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi⁴¹.

Taom nomlarining qanday masalliqlardan tayyorlanishi va shunga mos holda, ular turlarining har xil nomlar bilan atalishi, oʻziga xosliklari, har bir davr va hudud aholisi tilida katta farqlarga ega. Bu oʻsha davr va hudud aholisi turmush tarzining, hududda yetishtiriladigan oʻsimlik va hayvonot, ziroat turlarining xalq maishiy hayotiga ta'sirining va pirovardida ularning tiliga, xususan, taom nomlariga ta'sirining natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

Alisher Navoiy asarlaridagi oʻzbek shevalaridan toʻplangan materiallarga asoslanib, taom nomlarini quyidagi leksik-semantik guruhlariga boʻlib oʻrgandik:

1. Qanday mahsulotlardan tayyorlanishiga koʻra atalgan taom nomlari.
2. Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari.

Bu koʻrsatilgan taom nomlari guruhlari oʻz ichida xilma-xil turlarga va kichik guruhlariga boʻlinishi mumkinki, bular oʻsha taom nomlarining tayyorlanishi, biror marosimga moʻljallanishi kabilardan kelib chiqadi.

2.1. Qanday masalliqdan tayyorlanishiga koʻra taom nomlari

Navoiy asarlari soʻz boyligidagi taom nomlarining koʻpchilik qismini ular qaysi masalliq, mahsulotdan tayyorlanishiga qarab atalgan nomlar tashkil qiladi. Zotan, oʻrganilayotgan taom nomlari tizimida boshqa usullar asosida nomlangan taomlar boʻlsa ham, ularning katta qismi qanday mahsulotdan tayyorlanishiga asoslanib atalgan nomlardir. Ularni 4 ta guruhga ajratib oʻrgandik:

1. *Un yoki xamirdan tayyorlanadigan taom nomlari.*
2. *Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari.*

⁴¹ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 111-123.

3. *Go'sht va yog'dan tayyorlanadigan taom nomlari.*
4. *Sut mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taom nomlari.*
5. *Aralash masalliqlardan tayyorlanadigan taom nomlari.*

2.1.1. Un yoki xamirdan tayyorlanadigan taom nomlari

O'zbek pazandachiligida qadimdan un va xamirdan (qanday undan tayyorlanishidan qat'i nazar – bug'doy, jo'xori, arpa, tariq va sh.k. xamirlar nazarda tutiladi) tayyorlanadigan taom nomlari boshqa turlariga nisbatan ishlatilish salmog'i va xillarining soni bo'yicha asosiy o'rinni egallaydi. Un va xamirdan tayyorlanadigan taomlar xilma-xildir. Masalan, undan tayyorlanadigan taom nomlari: *bulamyq/ətələ* kabi; non mahsulotlari nomlari: *o'tmak, nan, pətir, chəlpək, qatlama, kəməch*; xamir ichiga masalliq solib tayyorlanadigan taom nomlari: *manti*; xamirli suyuq taom nomlari: *tutmoç (ugra osh), ushoq osh (ugra osh, tuppa), umoch* kabi. Quyida ular to'g'risida fikr yuritamiz.

Alisher Navoiy asarlari tilida un mahsulotlari turlovchi bir necha leksemalar qayd etilgan. Ular o'sha davrda kishilar kundalik turmushida yashash uchun zarur hisoblangan un mahsulotlaridan qay darajada istifoda etgani xususida ma'lumot beradi.

“Donni tegirmonda tortish bilan olinadigan kukunsimon ozuqa” ma'nosi *un* tub so'zi bilan anglashilganligi lug'atda aksini topgan (1, 83). Qadimgi turkiy bitiglarda bu so'z uchramaydi. “Qutadg'u bilig”, “Hibbatul haqoyiq” singari ilk eski turkiy manbalar so'z boyligida ham ushbu leksema yo'q. Mahmud Qoshg'ariy un so'zining “xamir” ma'nosida qo'llanishini ham ta'kidlaydi (1, 282)⁴².

ANATILda un so'zi “un, bo'g'doy uni” deb iohlangan. Navoiy asarlarida *un* leksemasi hozirgi ma'noda qo'llangan: “Eshak tegirmondin uyungga *un* kelturur, ani pishururga yozidin o'tun kelturur” (“Mahbub ul-qulub”dan).

Un tortmoq birikmasini ham uchratamizki, bu shaklni aynan qo'llab kelmoqdamiz:

Suhovash donasin dastosi gardun,

⁴² Дадабоев Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари.-Т.: ТДШИ, 2017. –Б.72.

Ming yil davr etsa bo'lmay tortmoq un. (FSh, 141).

Un qil – maydalamoq, talqonlamoq, un chiqarmoq: “*Hojar andin yorg'ichoq bila un qilib, o'tmak pishirdi va Ibrohim alayhis-salomni uyg'ottikim, taom yegay*”. (ANATIL, 293. “Tarixi anbiyo va hukamo”dan).

Insonning eng sevimli yemaklaridan biri nondir. Navoiy asarlarida fors tilidan o'zlashgan *non* leksemasi ko'p uchraydi, ammo bu so'zga ma'nodosh, o'sha davr uchun me'yor bo'lgan turkiycha *o'tmak* leksemasi ko'proq ishlatilgan. Ayniqsa, “Vaqfiya” asarida bunga misol ko'p. Ma'lumki, hazrat Navoiy g'oyat saxovatpesha bo'lganlar. “Vaqfiya”da bu zotning el-yurtga, kambag'al kishilarga, yetim-yesirlarga, bechoralarga, talabalarga qilgan xayriehsonlari, yordamlari qayd qilingan. Asarda Navoiy qurdirgan “binoyi xayr” xizmatchilariga, ulardan foydalanuvchilarga vaqti-vaqti bilan berib turiladigan maosh, nafaqa va moddiy yordamlar haqida malumot berilgan⁴³. Xususan:

“...ro'za oyida har kecha o'n besh botmon bug'doy, besh botmon **poludai dushobdin** yo **mavizobdin** o'ttuz tabaq, masoliq ulcha ehtiyoj bo'lg'ay. Ro'za iydidida **o'tmak** yuz botmon, **halvo** ellik botmon. Qurbon iydi avval kun uy bir son, qo'y besh son qurbon qilib, madrasa va xonaqohning fuqaro va masokin va soyir suk qonig'a ulashg'aylar. Ikkinchi kuni yigirmi botmon **et** bila yigirmi botmon bug'doyni **halim** qilib, ellik botmon **o'tmak** bila qismat qilg'aylar. Rabi ul-avval oyining o'n ikkisidakim Rasul xatmidur, besh qo'y masolihi bila **osh** pishurub, ellik botmon **o'tmak** bila yigirmi botmon **halvo** tortqaylar. Rajab oyining o'rtasi - istiftoh kuni yigirmi botmon **halvo**, ellik botmon **o'tmak**; sha'bon oyining o'rtasidakim, barot bo'lg'ay, **chalpak** o'ttuz botmon, **halvo** yigirmi botmon, qishning to'rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo'lg'ay, har kuni **o'tmak** yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab kilg'aylar va agar et topilmasa **jijig'lig' osh** pishurib, bergaylar. Yana sekiz oy har kun yigirmi botmon **o'tmak** fuqarog'a ulashg'aylar”⁴⁴.

Keltirilgan parchaning o'zida 6 xil taom nomi bor: **osh, halvo, o'tmak, chalpak, jijig'lig' osh.**

⁴³ Тоғаев Т. Саховат боғининг боғбони.// “Фермер” ж., 2008 й., 10-11-сон. –Б.19-24.

⁴⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 14-жилд, 272-бет.

Dastlab “**osh**” leksemasiga izoh berishga ehtiyoj tug‘ildi. Navoiy asarlarida bu so‘z ikki ma'noda: umumiy ovqat nomi va ma'lum bir ovqat turi sifatida qo‘llangan. ANATILda unga shunday izoh berilgan: “osh – ovqat, taom (2 j. 540-b). Bu o‘rinda umumiy taom nomi tarzida keltirilgan. Yuqorida ko‘rganimiz “...besh qo‘y masolihi bila **osh** pishurub” jumlasida osh so‘zi ovqat, taom ma'nosidagi umumiy nom bo‘lib, “...agar et topilmasa **jijig‘lig‘ osh** pishurib, bergaylar” jumlasida esa alohida ovqat turi sifatida qo‘llangan.

Osh leksemasi o‘zbek tiliga forschadan o‘zlashgan. Uning O‘TILdagi izohiga e‘tibor beraylik: OSh I [f.– yovg‘on sho‘rva, xo‘rda; ovqat] 1 Pishirilgan issiq ovqat. Ugra osh. Xo‘rda osh. Sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuq-suyuq oshlar bilan jo‘natib, ikkinchi kelishiga o‘ylashib javob beradigan bo‘ldilar. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

2 Umuman, har qanday ovqat, taom. Osh tuzi. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich! Maqol. Elga bersang oshingni, Erlar silar boshingni. Maqol. Jon bo‘lsa, jahon topilar, Osh bo‘lsa, qozon topilar. Maqol. To‘ra qozon boshidan mis tovoqda suyuq osh olib kelib, chordana quribo‘tirdi. N. Fozilov, Diydor.

3 ayn. palov. Osh damlamoq. mm Ilgarilari lag‘mon yoki osh yeyish uchun nuqul korxonadan tashqariga chiqishga majbur bo‘lar edik. Gazetadan. -O‘ltiring, o‘ltiring, mexmon! – dedi usta Farfi. – Oshga sabzi bosildi-pishdi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

Ko‘rinadiki, hozirgi o‘zbek tilida bu so‘zning ma'nosi kengayib, bittaga ko‘paygan.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi mana bu parchada ham “osh”, umuman, har qanday ovqat, taom ma'nosida qo‘llangan:

Qazon osturub, qildi qo‘ylar qatil

Ki, molin ziyofatqa qilg‘ay sabil.

Solib ju' mehmon dimog‘ig‘a dud,

Aning **oshikim**, tongla pishgay, ne sud⁴⁵.

⁴⁵ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 11-жилд, 439-бет.

“Hayrat ul-abror” dostonida ibratli bir hikoya keltiriladi. Bu qism shunday asarda shunday nomlangan: **“Ul qul hikoyatikim, ayog‘i toyilib, ayog‘luq oshini shohning boshi kosasig‘a urdi va karamlig‘ shoh olida o‘z oshin pishurdi”**. Voqyeaning mazmuni quyidagicha: Shoh hiyofatida bir qul bexosdan oyog‘i toyib ketib, kosadagi issiq oshni shohning boshiga to‘kib yuboradi. Qulning o‘zi ham, boshqalar ham shoh endi aybdorni qatlga buyuradi deb o‘ylashadi. Shoh muruvatli bo‘lganligidan qulning gunohidan o‘tadi: uni jazolamaydi. Shunda shoh yaqinlaridan biri nega uni jazolamaganini so‘raganida, oliyjanob hukmdor “bir marta o‘lgan odamni qayta o‘ldirmoqning hojati yo‘q, chunki qul qilib qo‘ygan ishidan qo‘rqib tamom bo‘lgan edi” mazmunida deb javob beradi. Ushbu hikoya ichida ham alohida ovqat turi – “*shilon*”, Pishirilgan issiq ovqat ma'nosidagi “*isig‘ oshni*” atamaları uchraydi:

Bor edi bir xusravi sohib karam,
Kim karamidin el edi muhtaram.
Xizmat aro bor edi bir qul anga,
Poyai xizmatda bakovul anga.
Bir kun aning bazmida **shilon** chog‘i,
Shohga ham ishtahi o‘lg‘on chog‘i.
Nakbat ayog‘ig‘a urub toshni,
Shah boshig‘a to‘kti **isig‘ oshni**⁴⁶.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida “osh”ning ikkita ma'nosi ko‘rsatilgan: “osh – mashhur ovqat”; “osh – har qanday taom”⁴⁷.

Hozir biz un yoki xamirdan tayyorlanadigan taom nomlariga tegishli **o‘tmak** –**non** mavzusidagi fikrimizni davom ettiramiz.

Non mahsulotlari nomlarining ifodalanishi

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham **un** va **o‘tmak** so‘zlari ishlatilgan: “Hojar andin yorg‘uchoq bila *un* qilib, *o‘tmak* pishurdi va Ibrohim a. s.ni uyg‘ottikim, taom yegay⁴⁸.”

⁴⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд, 371-бет.

⁴⁷ Мухаммад Юсуф Чингий. “Келурнома” – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 79.

⁴⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 114-бет.

Ma'lumki, *yorg'ichoq* – qo'l tegirmon, kishi mana shu ro'zg'or asbobida bo'g'doyni maydalab, un qilgani va undan *o'tmak-non* pishirgani ma'lum bo'lmoqda.

Navoiy buyuk va tengsiz so'z san'atkoridirki, bu so'zlarning ma'nodoshlarini almashtirib qo'llashida ham ko'rinadi: “Otamiz bizni pir Abulqosim qoshiga eltti. Chun savma'ag'a kirib, qoshig'a o'lturduq. Bir biyik cha erdi. Pir otamg'a ayttikim, bu Saidni egninga ko'tar. Ul toqda bir **nondur**. Tushursun! Otamiz bizni ko'tardi. Ul **nonni** tushurduk. Arfa **o'tmagi** erdi issiq. Shayx Abulqosim ul **o'tmakni** oldi va ko'zin yashartti va ikki sindurdi. Yarimin bizga berdiki, yegil va yarimin o'zi yedi. Otamiz dediki, bizga hych bu **nondin** nasib bo'lmasmu? Shayx dedi: Ey Abulxayr, o'ttiz yildurki, bu **nonni** bu toqda qo'yulubdur va bizga va'da qilibdurlarki, bu **qurs** ul kishi ilikidakim isigay, olame aning bila tirilgusidur va bu hadisning xatmi anga bo'lg'usidur”⁴⁹.

Yuqorida keltirilgan parchada **non** – **o'tmak** – **qurs** leksemalari o'zaro sinonim sifatida foydalanilgan. **Qurs kulcha non** sanalsa-da, bu o'rinda non tarzida talqin qilingan.

Shu o'rinda bir narsani alohida qayd etish lozim. Navoiy asarlarida ham, bular uchun tuzilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”da ham nonning turkiycha nomi ikki xil: *o'tmak* va *ekmak* shakllarida uchraydi:

Ekmak emas, borcha bukim to'rg'a sen,

*Arpau bug'doy sochibon o'rg'a sen*⁵⁰.

“Mahbub ul qulubda” hatto *itmak* (itmakchi - novvoy) shaklini uchratamiz. Alisher Navoiy asarlarini nashrga tayyorlovchilar va shoir alloma asarlari uchun zamonaviy lug'at tuzuvchilar bir so'zni *o'tmak*, *ekmak*, va *itmak* shakllarida taqdim qilmoqdalar. Bizningcha, *etmak* shakli to'g'ri. Negaki, “Devonu lug'atit turk asarida ham nonning turkiy atalishi “*etmak*” ekanligi ko'rsatilgan. Xususan: **etmak** – **non** (1 j. 127-bet); **etmak ushaldi** – non burdalandi, ushaldi (1 j, 205-bet); **ul o'zinga etmak uvundi** – u o'ziga non ushatdi (1 j, 210-bet).

⁴⁹ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 203-бет.

⁵⁰ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 7-жилд, 159-бет; АНАТИЛ, 3 ж., 562-бет.

O'rganilayotgan manbalarda taom nomlari o'z sifatлари bilan kelishi ko'p uchraydi *issiq non, quruq o'tmak, nobbotiy kuloch* kabi. Quyidagi bayt ham bunga misol bo'lishi mumkin:

*Bir quruq o'tmak bila suv kelturub,
Ev eyasi boshladi xizmat turub*⁵¹.

Yana:

*Yo 'q ulkim shah ollida qo 'yg 'ay kuloch,
Gadog 'a qurug ' nonu yovg 'on umoch*⁵².

Ushbu mavzuviy guruh son jihatidan ancha kengligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibida non mahsulotlari nomlarini bildiruvchi lesemalar qatori ularni tayyorlash jarayoni bilan bevosita bog'liq tushunchalarni anglatuvchi so'zlar ham mavjud bo'lgan. "Xamirdan tayyorlanib, tandirda, pechda pishiriladigan yegulik" sememasining hozirgi o'zbek tilida fors-tojik tilidan o'zlashgan **non** so'zi bilan anglashilishi barchaga ma'lum (O'TIL, 1, 510). Alisher Navoiy o'z asarlarida *non* so'zi bilan birga *etmak* leksemasini ham ishlatadi. Turkiycha **etmakka** ulug' mutafakkir ijodida **nondan** ko'ra ko'proq murojaat qilinganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, **o'tmak** va uning ekvivalenti **non** leksemalari shoirning "Vaqfiya", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida ko'p uchraydi.

Eski turkiy til, xususan "Devonu lug'atit turk" bugungi biz ishlatayotgan *non* so'zi ifodalagan ma'no o'ta faol qo'llanishda bo'lgan *etmak* leksemasi bilan ifodalangan. Bu so'z hozirgacha ma'lum qadimgi turkiy til matnlarida uchramaydi. XIII-XIV asr eski turkiy til obidalarida, masalan, "Tarjumon" da u keng qo'llangan. *Etmak* shakli ayni ma'nosi bilan hozirgi turk tilida ishlatilmoqda⁵³.

Navoiy asarlarida taom, ovqat nomlari to'g'risida gap ketganda, ko'pincha ular bilan bog'liq oshxona jihozlari ham tilga olinadi. *Dasturxon* shular jumlasiga kiradi. Eski o'zbek tilida bu ma'noni **xon** leksemasi bildirgan:

*Yoyildi chu shohona xonlar base,
Quyosh qursidek anda nonlar base.*

⁵¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд. "Ҳайрат ул-аброр", 339-бет.

⁵² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 11-жилд, 434-бет.

⁵³ Дадабоев Х. "Девону луғатит турк"нинг тил хусусиятлари.-Т.: ТДШИ, 2017. –Б.73.

*Hamul xon aro guna-guna taom,
Bo 'lub lahza-lahza tabiatqa kom.*⁵⁴

“Qone' darveshning quruq noni, tome' shohning xitoy xonidin xo‘broqdur”⁵⁵.
Ya'ni, quruq nonga qanoat qilgan darveshning bu yemagi shohning xitoyi dasturxonidan yaxshiroqdir.

Ko‘moch. Navoiy asarlarida uchraydigan non turlaridan biri **ko‘moch/kumoch** – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non. (ANATIL, 2 j. 151-b).

Ajdodlarimiz nonni cho‘g‘ kulida pishirish texnologiyasini ham bilishgan. “Cho‘g‘ kuliga ko‘mib pishirilgan non” ma'nosi *komach* leksemasi bilan ifodalangan. Hozirgi o‘zbek tilida “issiq kulga ko‘mib pishiriladigan non” sememasida (O‘TIL, 1, 415) qo‘llanayotgan birinchi so‘zning “ko‘mmoq” ma'nosidagi “*ko‘m*” fe'lidan yasalganiga shubha yo‘q.

Layli va Majnunning visolga yetishgan onlari daho shoir tomonidan shunchalar ta'sirli, go‘zal, sehrli va san'atkorona chizilganki, bunga qiyos topish qiyin. Shu manzara tasvirida shunday bayt uchraydi:

*Oy qursida yo‘q ziyo nishoni,
yer anga quyosh ko‘mochdoni.*

Mazmuni: “Oyning *kulchasida* nur ham ko‘rinmas edi, yer uni quyosh *ko‘machdoniga* ko‘mgan edi”⁵⁶.

Ko‘mochdonning izohini lug‘atlardan topa olmadik *Ko‘machdon* – non pishiradigan, ya'ni xamirni unga solib, cho‘g‘ kuliga ko‘miladigan vosita, narsa.

Fatir/patir. Bugungi kunda o‘zbek dasturxonining sevimli non turlaridan biri *fatir* hisoblanadi. Arab tilidan o‘zlashgan bu leksema o‘zbek tiliga fonetik jihatdan moslashib hozirda *patir* deb yuritiladi. Bu so‘z ham buyuk shoir lug‘at boyligidan o‘rin olgan:

*Ul o‘t ichida quyosh fatiri,
Oyni ne deyinki, qurs qiyri*⁵⁷.

⁵⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 11-жилд, 403-бет.

⁵⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 53-бет.

⁵⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд, 260-бет.

⁵⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд, 120-бет.

Izohi: «U o‘t ichida quyosh bir **patir**dek, oyni aytib ham o‘tirmayman, chunki u **kuygan kulcha**dek bo‘lib qolardi».

O‘TILda bu non turi shunday izohlangan: PATIR [a. - oshirilmagan, ko‘ptirilmagan (non)] Ko‘pincha yog‘ aralashtirilgan, oshirilmagan xamirdan chekichlab tayyorlanadigan yupqaroq non. *Sho‘rvaga patir to‘g‘ramoq* (3 j.,238-bet).

Bu so‘z ishtirokida hosil qilingan “patir ushatish” iborasi hozirda o‘zbek xalq etnografiyasida “qizni unashish, unashtirish marosimi”ni atash uchun ishlatilmoqda. Shuningdek, *Xamir uchidan patir* maqoli ham yuzaga kelganki, bu “katta narsaning, ishning boshla(n)masi, dastlabki kichik bir qismi, ulushi” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Qurs. Bu so‘z arabchadan o‘zlashgan. O‘zbek tilidagi *kulcha* ma’nosini ifodalagan. Navoiy hazratlari *qo‘rs* leksemasidan o‘z ijodida unumli foydalangan. Bunga yuqorida ba’zi misollar ham keltirildi. Yana bir misol:

Yoyildi chu shohona xonlar base,

Quyosh qursidek anda nonlar base.

“Saddi Iskandariy” dostonida bir katta bazm ta’rifida aytilgan ushbu misralarda “shohona dasturxonlar yozildi, unga qo‘yosh kulchasidek nonlar qo‘yildi” deyilmoqda (11-jild, 403-bet).“Tandirda yopilgan kichkina dumaloq non, ya’ni kulcha sememasini ifodalash uchun eski turkiy tilda *churak* so‘zi ishlatilgan. Bu so‘z “Tarjuman” “At-tuhfa” va “Kelurnomada”da ham aksini topgan. Alisher Navoiy *kulcha* so‘zi o‘rniga arabcha **qurs** leksemasini qo‘llagan:

Zaydg‘a rotibaki bo‘ldi daqiq,

*Non ikki qurs edi, su bir ibriq*⁵⁸.

(Zaydning ikkita kulcha noni, bir ko‘za suvi bor edi).

Navoiyning nasriy asarlarida, xususan, “Nasoyim ul-muhabbat”da ham bu so‘z ishlatilgan: “Ibriq qoshida ikki uluq **qurs** ko‘rdum”⁵⁹.

Boshqa turkiy yozma manbalarda bo‘lgani holda qo‘rsning ekvivalenti bo‘lgan *churak*, *churrak* shakllarini Navoiy asarlarida uchratmadik. Hozirgi o‘zbek

⁵⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 10-жилд, 199-бет.

⁵⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд, 411-бет.

tilida *churak* (*churrak*) non “Kafkaz xalqlarining to‘rtburchak shaklidagi taram-taram noni”ni anglatadi (O‘TIL, 2, 383).

Yuqorida *fatir* leksemasi izohida *qursi qiyr* iborasini ko‘rdik. Bu birikma *qora kulcha* degan ma'noni anglatadi.

Qatlama. “Yog‘li xamirdan qatlamlab yog‘ surib, yupqa yoyib yog‘da pishirilgan non, ya'ni qatlama” ma'nosi Alisher Navoiy asarlarida *qatlama* so‘zi bilan ifoda etilgan: “Va yana ba'zi yemaklardin qaymog‘ va **qatlama** va bulamog‘ va qurut va uloba va mantu va quymog‘ va urkamochni ham turkcha ayturlar”⁶⁰.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida “qatlama – yog‘da pishirilgan sho‘rtak non” deb izohlangan⁶¹.

Chalpak. Bunga “Vaqfiya”dan misol keltirishimiz mumkin:

“...barot bo‘lg‘ay, **chalpak** o‘ttuz botmon, halvo yigirmi botmon, qishning to‘rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo‘lg‘ay, har kuni o‘tmak yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab qilg‘aylar”⁶².

ANATILda chalpak – chalpak deb berilgan xolos, boshqa izohi yo‘q.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida “chalpak – yog‘da qovrilgan yupqa non” deb izohlangan⁶³.

O‘TILda bu so‘z shevaga mansub etib ko‘rsatilgan: ChALPAK 1 shv. Xamirni yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan yegulik. – Esimdan chiqibdi, – deydi kampir. – Mayliga, men o‘zim o‘nta chalpak pishirib, chiroq yoqaman. M.M.Do‘st, Galatepa qissalari.

Professor Shavkat Rahmatullaevning mashhur “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da bu taom turiga shunday izoh berilgan: ChALPAK 'xamirni yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan ovqat...Bu ot o‘zbek tilida chäl – fe'lining 'parchala–' ma'nosidan kuchaytirish (takror) ma'nosini ifodalovchi – pä qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shakliga –k qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan: (chäl– + pä = chälpä–)+ k = chälpäk⁶⁴.

⁶⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

⁶¹ Муҳаммад Юсуф Чингий. Келурнома. – Т.: Фан, 1982. – Б. 92.

⁶² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 272-бет.

⁶³ Муҳаммад Юсуф Чингий. Келурнома. – Т.: Фан, 1982. – Б. 109.

⁶⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1 ж. –Т.: Университет, 2000. –Б. 409.

Tadqiqotchi S. Artikbaevning “Toshkent vohasida kechgan o‘zbek–qozoq etnomadaniy aloqalari taraqqiyotida an’anaviy taomlarning ahamiyati” maqolasidan ham ishimizga oid ma’lumotlarni uchratdik. Mazkur maqolada o‘ziga hos tarixiy-madaniy mintqa hisoblanadigan Toshkent vohasi hududidagi o‘zbek va qozoq xalqlarining an’anaviy taomlari, hamda ularning mazkur ikki xalq etnomadaniy aloqalari taraqqiyotidagi ahamiyati, shuningdek, o‘zaro ta’sirlari ilmiy adabiyotlar va dala ma’lumotlari asosida tahlil etilgan. Masalan, qozonda nonning bir turisifatida tayyorlanadigan *chavati*, *qotirma*, *chalpak*, *cho‘zma*, *qatlama* XX asrda ham aholi o‘rtasida keng tarqalgan. Ularni tayyorlash usullari o‘zbek, qozoq, tojik va boshqa etnik jamoalarda juda o‘xshash. O‘zbeklardagi *chalpak* qozoqlarda *shalpak* deb yuritiladi⁶⁵.

Kuloch. Navoiy asarlari lug‘atlarida bu so‘zning ikki ma’nosi izohlangan:

1. Holvaga o‘xshash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha.

Bizga bu o‘rinda iqqinchi izoh zarur. Demak, kulchanning boshqa masalliqlar qo‘shib tayyorlangan turi *kuloch* deyiladi. Lug‘atda “Saddi Iskandariy” dostonidan misol keltirilgan:

Mabohot qilmas yemakdin kuloch,

*G‘amin bo‘lmas ar topsa yovg‘on umoch*⁶⁶.

“Mahbub ul-qulub”ning “Qanoat zikrida” bobida aytilgan purhikmat fikrlarda ham birikma shaklida bu so‘z ishtirok etganligini ko‘ramiz: “Va forig‘i faqrandishning yovg‘on umochi olg‘uvchi g‘aniyning **nabotiy kulochidan** marg‘ubroq”⁶⁷. Ya’ni, faqirning tinchgina yeydigan yovg‘on umochi olguvchi boyning novvotday shirin kulochidan yaxshiroqdir.

Bizningcha, *kulcha* va *kuloch* so‘zlari bir o‘zakdan yasalgan bo‘lsa kerak.

Quymog‘. Bu so‘z “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy atamalar uchun misol tariqasida keltirilgan: “Va yana ba’zi yemaklardin qaymog‘ va qatlama va

⁶⁵ Artikbaev S. Значение традиционной пищи в развитии узбеко-казахских этнокультурных взаимоотношений в Ташкентском оазисе. www.ziyouz.com kutubxonasi, 65-бет.

⁶⁶ Navoiy asarlari lug‘ati, 321-б.

⁶⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 14-жилд, 53-бет.

bulamog‘ va qurut va uloba va mantu va **quymog‘** va urkamochni ham turkcha ayturlar”. Hozirgi o‘zbek tilida “tuxumga un iylab yog‘da qovurib tayyorlanadigan ovqat”ni ifodalovchi **quymoq** leksemasi (O‘TIL, 2, 614) shoir asarlarida ayni shu ma‘no va mazmunda qo‘llangan.

Xamirli taom nomlarining ifodalanishi

Tutmoch. Bu taom turi haqida “Muhokamat ul-lug‘atayn”da misol keltirilgan: “Yana **tutmoch** va *umoch* va *kumoch* va *tolg‘onni* ham turkcha ayturlar”⁶⁸. ANATILda unga shunday izoh berilgan: *tutmoch* – pishgan taom turi; xamir oshi, *ugra osh*. (ANATIL, 3 j. 162-b.). Ko‘rinadiki, bu ovqat xamirli bo‘lib, yana **ugra osh** deb ham atalar ekan. Bundan *ugra osh* va *tutmoch* bitta taom nomi ekanligi anglashiladi. Bu taom nomining hozirgi lug‘at kitoblardagi izohiga e‘tibor qarataylik. Masalan O‘TILda bu so‘z shunday izohlangan:

UGRA 1 Yupqa yoyilib, uzun va mayda qilib kesilgan xamir. Ugra kesmoq. Ziyodaxon shitob bilan ugra kesar ekan, unga (Sidiqjonga) bir qarab qo‘ydi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chirokdari. 2 Shunday xamirdan tayyorlangan suyuq osh. Oliy nav un **ugra**, lag‘mon, manti kabi taomlar uchun ko‘l keladi. K. Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. Usta Abdullajon keltirgan bir kosa serqatiq **ugra** oshidan ikki-uch qoshiq ichib, qaytarib berdi. O. Yoqubov, Vido. (O‘TIL, 263-bet.)

Ugra so‘zini Navoiy asarlari tilida uchratmadik. Bizningcha, *tutmoch* va *ugra* turli taomlar bo‘lsa kerak.

Umoch. Navoiy bobomiz davridagi yana bir taom **umoch** bo‘lib, u haqda ham ma‘lumot berilgan: “Yana *tutmoch* va **umoch** va *kumoch* va *tolg‘onni* ham turkcha ayturlar”. “Navoiy asarlari lug‘ati”dagi izohga ko‘ra: *umoch* (yovg‘on *umoch*) – *umoch* (qattiq xamirni suvga uvalab pishirilgan suyuq ovqat (625-bet).

O‘TILda ham unga izoh berilgan: UMOCh Uvalangan xamir solib pishirilgan suyuqosh. Arslonqul.. zarang tovoqdagi *umochni* katta qoshiq bilan xo‘r-xo‘r ichdi. Oybek, Navoiy. Atala, *umoch*.. kabi suyuq oshlarning masallig‘i kamchil bo‘lganligi sababli.. «kambag‘al ovqati» deb yuritilardi. K.Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. 284-bet.

⁶⁸ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

Ushoq osh. Bu taom turini Navoiy asarlari orasidan topa olmadik. U “Navoiy asarlari lug‘ati”ga kiritilgan va “ugra osh, tuppa” deb izohlangan (NAL, 628-bet). Ammo lug‘atda bu so‘zning manbasi ko‘rsatilmagan. Ushoq osh ATILDA ham, hozirgi izohli lug‘atlarda ham qayd qilinmagan.

Bulamog‘. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bu turkiycha so‘z qayd etilgan: “Va yana ba’zi yemaklardin qaymog‘ va qatlama va **bulamog‘** va qurut va uloba va mantu va quymog‘ va urkamochni ham turkcha ayturlar⁶⁹. ANATILda bulamog‘ uchun berilgan izoh bu taom nomi haqida yetarli tushuncha, ma’lumot bermaydi, bu taomning qanday ovqat ekanligi anglashilmaydi: bulamog‘ – bulamoq (ovqatning turi) (1 j. 331-b.). Bu so‘zni O‘TILda ham uchratmadik. Yaqinda nashr qilingan Qorako‘l shevasi leksikasiga oid kitobda bu taom nomi “bulamoq” shaklida keltirilgan va shunday izohlangan: “bulamoq – atalaning o‘ziga xos turi”⁷⁰.

Yirik tilshunos Sh.Rahmatullaev bu so‘zni yaxshi izohlagan va etimologiyasini bergan: BULAMIQ sut bilan undan tayyorlanadigan atalasimon ovqat. Bu ot qadimgi turkiy tildagi **qorishtir**– ma’nosini anglatuvchi **bula**– fe’lidan –**мық** qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: **bula**– +**мық** = **bulамық** > **bulämiq**⁷¹. Demak, bulamuq – atala yoki atalasimon taom.

“O‘zbek pazandachiligida atalaning 10 dan ortiq turi bor ekanligi aniqlangan, lekin bularning barchasi kambag‘alning ovqati sifatida unutilib ketgan,- deb yozadi taomshunos olim K.Mahmudov⁷².

Tadqiqotchi Fayzullaeva Mavludaning “O‘zbek milliy taomlariga xos ijtimoiy-madaniy an’analar (Surxon vohasi misolida)” nomli maqolasida bulamiqqa oid ko‘pgina ma’lumot topdik. Atala vohada hozirga qadar tayyorlab kelinadi. Atalaning qadimdan an’anaviy ravishda bug‘doy va arpa unidan tayyorlab kelinganligi to‘g‘risida unga «tuqqan ayolning oshi», deb qaraganlar va tuqqan

⁶⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

⁷⁰ Ғайбуллаев С. Қорақўл шевасининг таровати. –Т.: Нихол, 2017. –Б. 27.

⁷¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1 ж. –Т.: Университет, 2000. –Б. 67.

⁷² Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. -Т.:1989. -Б.226.

ayollar uchun o‘ziga xos tarzda tayyorlangan, ya’ni, atala (bulamiq)ga mo‘miyo aralashtirib berilgan.

Surxondaryoning Oltinsoy tumanidagi qo‘ng‘irotlar tuqqan xotinga *oq bulamiq* pishirib berishgan. Shuning uchun «bir xotin tug‘sa, yetti kampir to‘yadi» degan maqol bo‘lgan. Bu taomni tayyorlash uchun unni yog‘da qovurib, faqat sutga pishirilgan va quyushgandan keyin laganga suzilgan hamda o‘rtasiga sariyog‘ solinib iste‘mol qilingan⁷³.

Atalaning an’anaviy ravishda tayyorlanib kelayotganligining boisi bu taomga nisbatan aholi orasida talab va ehtiyoj kuchli bo‘lgan, chunki yangi ko‘zi yorigan ayol sog‘lig‘ini mustahkamlash, unga quvvat berish kabi xislatlarga ega bo‘lgan. Surxon vohasida atala-bulamuq bilan bog‘liq udumlar ham bo‘lib yangi tushgan kelinni bulamiq qilib chaqirish yoki kelin tushgan uyga «kelin bulamiq» qilib qo‘yish odati mavjud. Bundan maqsad, kelin bulamiqday yumshoq, muloyim, tili shirin bo‘lsin, deb niyat qilishgan. Ko‘rinib turibdiki, qadimdan tayyorlanib kelingan bulamog‘-atala yuqoridagi shifobaxshilik xususiyatlardan tashqari, nikoh to‘yi bilan bog‘liq hozirgi urf-odatlarimizda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, voha aholisining ijtimoiy hayotidan chuqur joy olgan.

2.1.2. Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari

Bu taomlarga guruch, bug‘doy, jo‘xori, tariq va moshlardan tayyorlanadigan taom nomlarini kiritish mumkin. Bug‘doydan tayyorlanadigan taom nomlariga: *bug‘ro*, *qovurmoch*, tariqdan tayyorlanadigan taom nomi: *səkboch* kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Bug‘ro. Bu taom turi hozirgi o‘zbek tilida ishlatilmaydi. U tarixiy so‘zga aylangan. Navoiy davrida ko‘pchilik uchun tayyorlanadigan taom bo‘lganligi anglashiladi: “Bir kun Gavharshodbegim madrasasi tolibi ilmlari bir bog‘da suhbat tutub, **bug‘ro** pishiradur ermishlar”. ANATILda keltirilgan bu misolda manba “Xamsatul mutaxayyirun” ekanligi ko‘rsatilgan va **bug‘ro** so‘zi “taom turi” deb izohlangan, xolos⁷⁴. NALda esa “bug‘ro – bug‘doyni oqlab pishiriladigan va katta

⁷³ Хамрокулова Б. Сурхондарё воҳасида бола туғилиши ва тарбияси билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар (ХIХаср охири-XXаср бошлари). Диссертация қўлёзмаси. -Т.,2002.-Б.57.

⁷⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3 ж., 576-б.

yig'inda tortiladigan ovqat" deb izohlangan⁷⁵. Taxmin qilamizki, bu taom turi hozirgi **yorma** bo'lsa kerak. Yorma oqlab tuyilgan bug'doy yormasidan tayyorlanib, katta yig'inlarda, masalan, askar yigit armiyadan qaytganda, elga tortiladigan taom hisoblanadi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisi orasida hozirda ham iste'mol qilib kelinadi.

Jijig'lig' osh. Bu taom turi haqida Navoiy bobomiz yozadilar: "...qishning to'rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo'lg'ay, har kuni o'tmak yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab kilg'aylar va agar et topilmasa *jijig'lig' osh* pishurib, bergaylar"⁷⁶. ANATIL bu taom turi "jijig'lig' osh – jijig'lig' - go'ja osh, taom nomi" deb izohlangan⁷⁷. Lekin "Navoiy asarlari lug'ati"da "**jijig' – dumba yog'**"⁷⁸ deb izohlanganki, buni to'g'ri deb o'ylaymiz.

So'kboch. Bu taom nomini "Nasoyim ul-muhabbat" asarida uchratamiz: "Sahl Abdulloh ... dedi: Senga mehmonman. Ul dedi: Ne buyurursen? Dedi: *so'kboch* pishur. Sahl *so'kboch* pishurtti va qozon bila oning ollig'a qo'ydilar"⁷⁹.

ANATILda **so'kboch – so'kosh** deb izohlangan (3 j., 140-bet). So'kbochning o'zagi **so'k** ekani ma'lum. O'TILda **so'k** so'ziga shunday izoh berilgan:

SO'K Tozalangan, oqlangan tariq. *Xom so'k. Qovurilgan so'k. So'k oshi. Ovqatga so'k solmoq. So'k tolqon. Dasturxonda yana o'sha qurt, suzma, so'k paydo bo'ldi, saldan keyin eshikdan bir guruh qizlar ko'rindi. O. Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. Palossiz, zax sementda yotasan, Har kuni yeydigan bir cho'mich yovg'on so'k oshi yoki suli bo'tqadan xam ma'rum bo'lib, ikki yuz gramm non va suvga kuning qoladi.* «Yoshlik». (3 j., 612-bet). Demak, **so'kboch** so'kdan, ya'ni tozalangan, oqlangan tariqdan tayyorlangan **so'k oshidir**.

Tilimizda bu taom turi bilan bog'liq matallar ham mavjud: "So'k oshiga surnay", "So'k oshga ham surnaymi" kest. Arzimagan ishga ortiqcha dabdaba, darang-durung qilingan hollarda ishlatiladi.

⁷⁵ Navoiy asarlari lug'ati. 139-bet.

⁷⁶ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

⁷⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1 ж. 540-б.

⁷⁸ Navoiy asarlari lug'ati. 225-б.

⁷⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд. 167-бет.

Qovurmoch. qovurmoch – qovurmoch, qovurilgan don, bo‘g‘doy (ANATIL, 4 j. 59-b.). “Layli va Majnun” dostonida bu so‘zga murojaat qilingan:

Xirman yerida tazarvu durroj,

yer tobasidin terib qovurmoch (LM, 9-j. 189-bet).

DLTda ham “qo‘g‘irmoch (qovrilgan bo‘g‘doy)” lesemasi qayd etilgan⁸⁰ *Qo‘g‘irmoch* “qozonda qovurilgan bo‘g‘doy” (O‘TIL, 2, 646) hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanishda davom etmoqda.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida ham “qavurmach”- “qovrulgan bug‘doy” deb izohlangan⁸¹.

Talqon. “Qovurilgan don, quritilgan non va shu kabilardan tuyib tayyorlangan yemish” sememasining hozirgi o‘zbek tilida talqon so‘zi bilan ifodalanishi ma‘lum (O‘TIL, 2, 109). Bu so‘z “*yanchmoq*” ma‘nosini anglatgan *talfe’liga* –*qa* va –*n* affikslarini qo‘shishdan hosil bo‘lgan. Bu so‘z “DLT”da qayd qilingan⁸² (HD, 74). Navoiy ijodida ham “talqon” so‘ziga murojaat qilingan:

Tutub juldu olur yormoqqa qalqon,

Degilkim aylamishlar tog‘ni talqon. (FSh)

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da bu so‘z qayd etilgan: “Yana tutmoch va umoch va kumoch va **tolg‘onni** ham turkcha ayturlar”⁸³. Ko‘rinadiki, leksemaning *tolg‘on/tolqon* shakllari mavjud.

Bu so‘zning ANATILdagi izohi shunday: *tolg‘on/tolqon* – talqon (3 j., 242-b).

Uloba va urkamoch. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bizga notanish yana ikkita taom nomi uchraydi: “Va yana ba’zi yemaklardan qaymog‘ va qatlama va bulamog‘ va qurut va **uloba** va mantu va quymog‘ va **urkamochni** ham turkcha ayturlar”⁸⁴. ANATILda **uloba** – “ovqatlarning bir turi” (3 j., 285-b.), **urkamoch** – “taom turlaridan bir” (3 j., 297-b.) deb izohlansa, NALda **uloba** – “issiq ovqatning bir turi” deb ko‘rsatilgan (624-b.). Bu izohlar bizga ushbu taom nomlari haqida yetarli

⁸⁰ Дадабоев Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари.-Т.: ТДШИ, 2017. –Б.78.

⁸¹ Муҳаммад Юсуф Чингий. Келурнома. – Т.: Фан, 1982. – Б. 71.

⁸² Дадабоев Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари.-Т.: ТДШИ, 2017. –Б.74.

⁸³ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

⁸⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-жилд, 17-бет.

va aniq ma'lumot bermaydi, ularning qanday ovqat ekanligi, qaysi mahsulotlardan tayyorlanishini anglatmaydi.

2.1.3. Go'sht va yog'dandan tayyorlanadigan taom nomlari

Navoiy asarlarida go'sht va yog'dan tayyorlanadigan taom nomlari ham anchaginadir. Masalan, *et*, *qo'y uchasi (biqin go'shti)*, *kabob*, *bat (o'rdak)*, *kabob*, *jigar kabob*, *qazi*, *sho'rva/sho'rba*, *dumba/dunba*, *jijig'* kabi.

Navoiy asarlari tilida "go'sht" ma'nosini ifodalash vazifasi asl turkiycha "et" zimmasida bo'lgan. Ushbu so'zdan "etli qo'y" kabi kabi so'z birikmalari hosil qilingan. Go'shtning navlarini ifodalash uchun *qoq* (*qoq et*) leksemalari qo'llangan. Buni biz ayni shaklda DLTda ham uchratishimiz mumkin (3, 300). Hozirgi o'zbek tilida *qoq* leksemasi "juda ham quruq, qurigan, sira ham nami qolmagan; juda ham oriq, chandir" ma'nolarini bildiradi (O'TIL, 2, 607).

Misollarga murojaat qilaylik:

"Qo'pti va safol qozonni osti va bir pora **qoq eti** bor erdi, qozong'a soldi... Dedi: **ettin** yegil! Men dedim: meni ma'zur tut **et** yemakdin!"⁸⁵.

Kabob. Forscha o'zlashma bo'lgan bu taom nomi Navoiy asarlari lug'at boyligida ko'p uchraydi. O'sha davrda ham hozirgi kabob, ya'ni go'shtni metall yoki yog'och sixga terib, cho'g'da toblab pishiriladigan taom ma'nosini anglatgan. "Tarixi mulki ajam"lan misol: "Bir kun bir yo'lda tushub, kabob buyurdi"⁸⁶.

Ushbu baytda kabob bilan birga *six* va *tabaq* kabi oshxona buyumlari ham ifoda etilgan:

Bazmning asbobini qilg'il nasaq,

*Hozir etub sixu, kabobu tabaq*⁸⁷.

Kabobning turlari bildiruvchi birliklarni ham uchratamiz:

Chun azmi sharobi nob etarlar,

*Jayran qo'zisin kabob etarlar*⁸⁸.

"Farhod va Shirin" dostonidan:

Teshib behad tani osudasini,

⁸⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 163-бет.

⁸⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 239-бет.

⁸⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд, 319-бет.

⁸⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд, 80-бет.

Kabob etgan kibi qo‘y ro‘dasini. (ANATIL, 2 j. 86-b.)

Qo‘y ro‘dasi- qo‘y ichagi.

Jigar kabobiga mayl etmagan esa ul mast,

Navoiyo nega bahringni har taraf tildi. (“Xazoyin ul-maoniy”)

Yuqorida keltirilgan misollardan *jayron qo‘zisi, qo‘y rudasi-ichagi, jigardan* tayyorlangan kaboblarni bilib olamiz.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi mana bu baytda yana bir taom nomi – *semirgan o‘rdak kabobi* keltiriladi:

Muning yuzida may bati la‘li nob,

*Ichinda aning burdag‘an **bat kabob***⁸⁹.

Mazmuni: “O‘rdak shakl, tiniq may idishi yonida *bo‘rdoqi o‘rdak kabob* tursa, o‘tning shu‘lasi uyni gulshan, mayning jilvasi ko‘zni ravshan aylasa”.

“Sabbai sayyor” dostonida esa go‘r – yovvoyi eshak, qulon go‘shidan ham kabob tayyorlangani fakti uchraydi:

Lolazor ichra chun ichib mayi nob,

*Go‘r eti erdi bazmi ichra **kabob**.* (ANATIL, 433-bet)

“Eltgan nimalar orasida hamonokim bir e‘tidoldin tashqari *semiz qo‘y uchasi* (*biqin go‘shiti*) dag‘i bor ermish”⁹⁰.

O‘rganilayotgan manbalarda baliq va baliq mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari aniq keltirilmagan bo‘lsa-da, baliq inson ozig‘i ekanligiga dalolat beruvchi faktlar mavjud. “Mahbub ul-qulub” asarida bu borada yaxshi misol uchraydi: “Sayyodning baliqqa shast solmog‘i nafs muddaosi uchundur va *baliqning* ham qarmoqqa giriftor bo‘lmog‘i ju‘ balosi uchun”⁹¹.

2.1.4. Sut mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taom nomlari

Mazkur mavzuviy guruhga doir leksemalar Alisher Navoiy asarlarida to‘qqizta nomda uchraydi. Ular davr turkiy xalqlarining asosiy turmush tarzi – chorvachilik bilan bevosita bog‘langandir. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, hozirgi qarindosh turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida sut mahsulotlari turlarini

⁸⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 11-жилд, 697-бет.

⁹⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 15-жилд, 22-бет.

⁹¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 110-бет.

ifodalayotgan soʻzlarning aksariyati Mahmud Koshgʻariy lugʻatida aksini topgan Chunonchi, “qora molning yelinidan sogʻib olingan oq suyuqlik” sememasining *sy̋t* leksemasi bilan ifodalanganini kuzatamiz⁹². Ayni sut undan tayyorlanadigan ovqat va mahsulotlar uchun asos boʻlib xizmat qilgan. Sut leksemasi umuman moldan sogʻib olinadigan oq suyuqlikni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga muayyan mol turidan sogʻib olinadigan sutni ifodalash maqsadida alohida soʻzlar, birikmalar ajdodlar tilida qoʻllangan.

Oʻrganilayotgan manbada sut mahsulotlari nomlariga quyidagilarni kiritish mumkin: *falla, qatiq, jugʻrot, panir, qaymagʻ, sarigʻ yogʻ, qimiz, suzma, qurut*.

Sut. Boshqa sutli mahsulotlarga moya boʻlgan *sut* leksemasining oʻzi Navoiy asarlarida koʻpgina oʻrinlarda uchraydi. “Hayrat ul-abror” dostonida bunga misol bor:

*Sut koʻrunub shakkarida xushgʻuvor,
Garchi xirad piri anga shirxor.
Zahri jafo koʻp ezilib jomigʻa,
Shiru shakar taʻmi berib komigʻa*⁹³.

Ushbu parchada ham turkiycha *sut*, ham uning forsiycha muqobili *shir* leksemalari qoʻllanmoqdaki, Alisher Navoiy zullusonnayn shoir sifatida oʻz ijodida har ikki til boʻyliklaridan unumli foydalanganligini koʻramiz.

“Farhod va Shirin” dostonida ham *sut* leksemasiga misollar topamiz:

*Ne qatra sut ichurgach doyai ishq,
Boʻlub bir gavhari sarmoyai ishq.
Birovkim ishqdin boʻlgʻay anga qut,
Sut ichsa dur boʻlur, qon ichsa yoqut*⁹⁴.

Falla. Bu – yangi tuqqan hayvonning dastlabki suti, ogʻiz (uviz)ga foydalaniladigan sut⁹⁵. “Navoiy asarlari lugʻati”da izohdan soʻng misol keltirilmagan. Oʻzlashma ekanligi (a. yoki f.) belgisi yoʻq.

⁹² Дадабоев. Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТДШИ, 2017, 69-бет.

⁹³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд, 34-бет.

⁹⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 8-жилд, 71-бет.

Bu soʻz “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga kiritilmagan, ammo hozirda ham Andijon, Fargʻona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari xalq shevalarida “pəllə” shaklida uchraydi. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”da “pəllə” shunday izohlangan: “pəllə – ogʻiz, yangi tuqqan sigirning sutidan tayyorlanadigan ogʻiz”⁹⁶.

Qatiq. Bu leksema hozirda ham tilimizda aynan oʻsha davrdagi shakl va maʼnosida qoʻllanib kelmoqda.

Misoli:

Tinch koʻngul birla qatiqsiz umoch

*Behki birov minnati birla kuloch*⁹⁷.

“Birovning minnatli kulochidan oʻz qatiqsiz umochingni tinch koʻngil bilan ichganing yaxshi” mazmunida aytilgan ushbu bayt irsolu masal sanʼati asosida tartib berilgan.

Jugʻrot. Bu soʻz lugʻatda “qatiq” deb izohlangan. Buning misoli “Saddi Iskandariy”dan:

Ani uyga kelturdi tortib inon,

*Ravon mohazar chekti jugʻrotu non*⁹⁸.

Mazmuni: uni uyga keltirib, oldiga tayyor turgan **jugʻrot** va **nonni** qoʻydi. **Jugʻrot** hozirda boshqa turkiy tillarda, xususan, tatar tilida ishlatiladigan **yugʻurt** soʻzining Navoiy davridagi shakli. Bu soʻz rus tiliga oʻzlashib, *yogurt* shaklida faol qoʻllanmoqda.

“Sutdan tomizgʻi solib ivitib tayyorlanadigan mahsulot” (OʻTIL, 2, 560), yaʼni qatiq eski turkiy tilda “aralash-tirmoq, qormoq” maʼnosini ifodalagan *yogʻur*-harakat feʼlidan yasalgan derivati bilan anglashilgan (3, 179). Bu soʻzning *yogʻrut* fonetik shakli “Qutadgʻu bilig”da ishlatilgan: *qymyz, syt ya yjn yagʻ ya yogʻrut qurut* – qimiz, sut yoki jun, yogʻ yoki qatiq, qurut⁹⁹. Alisher Navoiy asarlarida bu soʻz (**jugʻrot**) biroz fonetik oʻzgachalikda ekan.

⁹⁵ Navoiy asarlari lugʻati. 631-bet.

⁹⁶ Ўзбек халқ шевалари луғати /Масъул муҳаррир: Ш.Шоабдурахмонов. –Т.: Фан, 1971. –Б.211-бет.

⁹⁷ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплам, 7-жилд, 180-бет.

⁹⁸ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплам, 4-жилд, 22-бет.

⁹⁹ Дадабоев. Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТДШИ, 2017, -Б.79.

Panir. Bugungi kunda tilimizda arxaizmga aylangan bu soʻzning maʼnosi – pishloq. Uni “Holati Mahlavon Mahmud” asarida uchratdik: “Dedimki ayyuhashshayx, miqdore toza panir bor, mayl bormu, keltursak? Va aning toza **panirgʻa** mayli koʻp boʻlur erdi. Dedi: keltur!”¹⁰⁰.

Ushbu taom nomi Buxoro shevasida uchrashi sheva lugʻatida qayd qilingan: “Panir – qoʻy sutidan tayyorlangan pishloq”¹⁰¹.

Qaymogʻ. Bu soʻz hozirgi *qaymoq* ekanligi maʼlum. “Muhokamat ul-lugʻatayn”da koʻplab taom nomlari qatorida uchraydi: “Va *qimizni va suzmani, va boxsumni va boʻzani dagʻi turkcha ayturlar, va yana baʼzi yemaklardin qaymogʻ va qatlamani va la va qurut va ulobani ham turkcha ayturlar*”¹⁰².

Hozirgi oʻzbek tilida *qaymoq* leksemasi “bir necha vaqt turgʻizib qoʻyilgan sut betida paydo boʻladigan yoki sutdan separator yordamida ajratib olinadigan quyuq yogʻli mahsulot” semasini ifodalaydi (OʻTIL, 2, 538). Alisher Navoiy bu soʻzni oʻz asarlarida shu maʼnoda ishlatgan.

Yuqoridagi misolda boshqa taom nomlaridan tashqari *qimiz, suzma, qaymogʻ, qurut* kabi sut mahsulotlari – yemaklar nomi ham keltirilgan.

Qimiz. Yilqi suti *qymyz* leksemasi bilan anglashilgan. “Qimiz biya sutidan maxsus idishlarda bijgʻitish yoʻli bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik” (OʻTIL, 5 j., 292-bet.). Bu soʻz Navoiy asarlarida ayni maʼnoda qoʻllanganini yuqorida keltirilgan misollarda koʻrdik.

Mahmud Koshgʻariy bu soʻzga quyidagicha izoh beradi: qimiz, bu yilqi suti boʻlib, uni sanoch – meshlarga solib, achitib ichiladi (DLT, 1 j., 346).

Suzma. “Xaltaga solib osib qoʻyib suzilgan qatiqdan hosil boʻlgan mahsulot” semasi “tinitmoq, tozalamoq” (OʻTIL, 2 j., 82) maʼnosidagi soʻz feʼldan yasalgan *suzma* derivati bilan anglashilgan.

Qurut. “Suzmani yongʻofday-yongʻoqday yumaloqlab quritib tayyorlangan mahsulot” maʼnosi (OʻTIL, 2, 624) “suvi, nami qochib, suvini, namini yoʻqotib quruq holga kelmoq, quruq boʻlmoq” maʼnosidagi **quru-** feʼlidan **-q** qoʻshimchasi

¹⁰⁰ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд, 170-бет.

¹⁰¹ Ўзбек халқ шевалари луғати /Масъул муҳаррир: Ш.Шоабдурахмонов. –Т.: Фан, 1971. –Б.208.

¹⁰² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1985. Т.IV. – Б. 52-81.

bilan yasalgan **qurut** soʻzi yordamida ifodalangan. Mazkur leksimaning ilk eski turkiy tilda faol qoʻllangan.¹⁰³ (HD, 71).

Sarigʻ yogʻ. Alisher Navoiy asarlari tilida hozirgi sariyogʻ leksemasi shu maʼnoda “sarigʻ yogʻ” shaklida qoʻllanganini koʻramiz:

Itik teshalarigʻ a har qaro togʻ.

Pichogʻ ollinda andoqkim, sarigʻ yogʻ¹⁰⁴.

Ushbu bayt bizga tilimiz boyligining ajoyib namunasini namoyish qilmoqda. Birinchidan, taom nomlari boʻyicha izlanishlarimizda hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi *sariyogʻ* leksemasining Navoiy bobomiz davrida ham deyarli shunday *sarigʻ yogʻ* shaklida qoʻllanganining guvohi boʻlamiz. Ikkinchidan, bu taom nomi ishtirokida ajoyib bir frazeologik birikma qoʻllanganki, hozirda ham tilimizda ishlatilib kelmoqda boʻlgan “Pichogʻi yogʻ ustida” iborasining tarixiy ifodasini buyuk shoirimiz tufayli koʻrmoqdamiz: “*Pichogʻ ollinda andoqkim, sarigʻ yogʻ*”.

DLTda “Mol sutidan ajratib olingan yogʻ” maʼnosini ifodalash *sagʻ yogʻ* birikmasi zimmasida boʻlgan (3, 168). “At-tuhfa”da bu soʻzning *sari yav* fonetik shaklida ishlatilgan va “sariyogʻ”ni ifodalagan¹⁰⁵.

Ilmiy tadqiqotlarda Oʻrta Osiyo xalqlari sutdan qaymoq (xom sutdan olingan yogʻ), smenana, qatiq, sariyogʻ, suzma, chakki, ayron, qurut singari mahsulotlar tayyorlangan. Ushbu manbalarda qayd etilishicha, oʻtroq va koʻchmanchi xalqlarda ushbu mahsulotlarning tayyorlanish texnologiyasida baʼzi farqli jihatlar boʻlgan, ammo bu sut mahsulotlari taomlarining barchasi oʻtroq xalq ratsionida asosiy oʻrinlardan birini egallagan¹⁰⁶. Bu oʻtroq va koʻchmanchi xalqlarning anʼanaviy xalq taomlari tarixini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, qoʻshni etnoslarning oʻziga xos jihatlari bu sohada yaxshi saqlanib qolgan.

2.1.5. Aralash masalliqlardan tayyorlanadigan taom nomlari

Shoʻrba. Bu taom turkiy xalqlarning ham qadim yemaklaridan sanaladi. Shoʻrba leksemasi fors-tojik tilidan oʻzlashgan. Buning turkiycha nomi DLTda

¹⁰³ Дадабоев. Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТДШИ, 2017, -Б.71.

¹⁰⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 8-жилд. –Б. 90.

¹⁰⁵ Дадабоев. Х. “Девону луғатит турк”нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТДШИ, 2017, -Б.71.

¹⁰⁶ Қаранг: Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков XIX начало XX в. Т. 1981. С 114-115; Культура и быт казахского колхозного аула...С.134.

mun deb ko'rsatilgan. Navoiy davriga kelib bu tarixiy so'zga aylangan va sho'rba qo'llana boshlagan. "Nasoyim ul-muhabbat"da o'qiymiz: "Bir kun anga bordim, Istaxrda erdi, kecha qoshig'a kirdim. Dedi, yo Abo Abdulloh, bu kun sening barakatingdin **yog'lig' taom** yegumizdur. Qo'pti va safol qozonni osti va bir pora qoq eti bor erdi, qozong'a soldi va tuz solib, qozonni qaynatdi: Va biravga dedikim, bir pora o'tmak kelturdi. Va ani tarid qildi, **sho'rbadin** anga soldi va etni aning yuziga qo'ydi"¹⁰⁷.

O'TILda: ShO'RVA [f. sho'rbo, sho'rvo]— guruch, go'shtli suyuq ovqat; mastava] Go'sht, piyoz, kartoshka va b. sabzavotlar solib pishiriladigan suyuq ovqat. Qaynatma sho'rva. Qovurma sho'rva. Tovuq sho'rva. Sho'rva pishirmoq. Korsondagi qimiz tugab, **sho'rva** ham ichildi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. 222-bet. (3 j., 13-bet).

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, Navoiy asarlari lug'at boytilida uchraydigan **sho'rba** hozirgi ma'nodagi sho'rvaning o'zi, faqat b undoshi v undoshiga o'zgargan.

Shilon / shulon. Turkiy nomdagi bu ovqat turining lug'atlarda ikki ma'nosi izohlangan: **shilon/shulon** – shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.). Bu so'zga ulug' shoir asarlarida bir necha bor uchraydi:

Agar bo'lsa *shilon* ishida futur,

Chu arz ayladuk bizdin ermas qusur¹⁰⁸».

Bu so'z "Munshoot"da Badiuzzamonga nasihat bilan bitilgan xatda qayd etilgan: "Yana ulkim, dodxoh ishi tugagondin so'ngrakim, **shilon** ham bartaraf bo'lur, ichkixona ta'yin qilib, anda o'lturub, arkoni davlatni tilab, mulk va mol ishi aytilsa, o'zluk bila barchag'a yetilsa¹⁰⁹".

Shulon eski turkiy yodgorliklarda uchrashi olimlar tomonidan qayd etilgan. O'zbek adabiy tili tarixiga oid bir qo'llanmada "*shilon* – *ko'pchilikka tayyorlanadigan ovqat*" ekanligi qayd etilgan va bu "Shajarayi turk"dan keltirilgan

¹⁰⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд, 163-бет.

¹⁰⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 11-жилд, 299-бет.

¹⁰⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 14-жилд, 192-бет.

misol bilan tasdiqlangan: “*podshohliq shilonda so‘ymoq uchun ming olti yuz do‘non qo‘y, munga qozon qo‘y ot qo‘ydilar*”¹¹⁰.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida ham bu so‘z qayd qilingan: “**Shulan** – kambag‘al odamlar, oddiy xalq uchun tayyorlanadigan taom¹¹¹”.

O‘TILda bu so‘z shunday izohlangan: ShULON Kambag‘al, beva-bechoralarga tarqatiladigan issiq ovqat. Shulon sho‘rva. Shulon pishirmoq. Sheva tilida: Qorin ko‘p och, Na go‘ja bor, shulon sho‘rva Va na umoch. G‘. G‘ulom. (5 j., 5-bet).

XX asrdan boshlab bu so‘z kambag‘allar ovqati, oddiy taom nomi sifatida **shulon sho‘rva** so‘z birikmasi bilan atala boshlandi:

“[Jamila:] Ketamiz! Bir parcha kuyuk kulcha, bir qultum **shulon sho‘rvani** xar joydan ham topib ichamiz!” Hamza, Boy ila xizmatchi. (O‘TIL, 374-bet).

“Bir tuyur go‘shu makaron solinib qaynatilgan **shulon sho‘rva**. joningizga tegib ketadi”. Sh. Xolmirzaev, Saylanma. (O‘TIL, 222-bet).

Halim. Bu arabcha o‘zlashma “Vaqfiya” asarida qo‘llangan: “Ikkinchi kuni yigirma botmon et bila yigirmi botmon bug‘doyni **halim** qilib, ellik botmon o‘tmak bila qismat qilg‘aylar”. ANATILda unga shunday izoh berilgan: “yumshoq, muloyim; go‘sh va ohlangan bug‘doydan uzoq qaynatib pishiriladigan taom, halim” (144-b.). Halimning O‘TILDagi izohi ham bunga uyg‘un “suvga bug‘doy yormasi va go‘sh solib, uzoq (hil-hil bo‘lib ketguncha) qaynatib pishiriladigan quyuq ovqat” (O‘TIL, 492). Halim hozirda ham shu nom bilan tilimizda faol qo‘llanmoqda va o‘zbek taomlari ratsionidan o‘rin olgan.

Harisa. Lug‘atlarda bu so‘zning izohi mavjud: harisa – (*forscha*) – Halim (ko‘pchilikka go‘sh va bug‘doydan pishirilgan ovqat). (NAL, 767-bet). Anglashiladiki, bu halimning sinonimi, forsha nomi ekan. “Nasoyim ul-muhabbatda bu so‘z qo‘llanganini ko‘ramiz: “Ul kishi debdur: yo Shayx, darvoza

¹¹⁰ Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихидан материаллар. –Т.: ТошДУ, 1983, 15-б.

¹¹¹ Мухаммад Юсуф Чингий. “Келурнома” – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 71.

bog'lig'dur va ochmen va hyech yegulik yo'qdur. Tilarmen, manga **harisa** bersang!

Shayx debdurki, muni ko'rung, mendin shomlig' tilar va **harisadin** o'zga narsa tilamas. Magar men **harisapazmen**? Ul debdurki, albatta bu muddaodin o'tman. Bu so'z orasida ko'rubdurki, bir ayog' **issig' harisa** hozir bo'ldi"¹¹².

2.2. Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari

Navoiy asarlari tilida shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari ko'pchilikni tashkil etadi. "Vavfiya" asarida ularning bir qanchasini uchratish mumkin. Chunonchi: "...ro'za oyida har kecha o'n besh botmon bug'doy, besh botmon **poludai dushobdin** yo **mavizobdin** o'ttuz tabaq, masoliq ulcha ehtiyoj bo'lg'ay. Ro'za iydidida o'tmak yuz botmon, **halvo** ellik botmon."¹¹³

Keltirilgan parchada **halvo**, ya'ni **holva** shirinligi arabchadan o'lashgani ma'lum. Bu qandolat mahsuloti un, shakar va yog'dan ba'zan kunjut, mag'iz qo'shib tayyorlanadi. Qadimdan ajdodlarimiz dasturxonida bo'lgan.

ANATILda **poludai dushob** birikmasi shunday izohlangan: "asl, toza shinni, uzumdan qilingan toza shinni". NALda esa bu noaniq izohlangan: poluda – bir ovqatning nomi"(511-bet).

Yana bir o'rinda dushob so'zining yolg'iz uchraydi: "Va ul budurki, bir kun och erdi va anga orzu bo'ldikim, ikki issiq non bila **dushob** bo'lsakim, yesa. Bu ochlig'da masjidga kirib uyudi. Bir muridi ani uyug'on ko'rdi va dedi, shoyad och erkin. Ikki issig' non bila **dushob** olib eltib, sajjodasi ostig'a qo'ydi"¹¹⁴.

Yana bir inson ozuqasi nomi **mavozib** forsiy tildan o'zlashib, **maviz** va **ob** so'zlari birikmasidan hosil bo'lgan". ANATILdagi izohi: **mavizob** - "mayiz suvi, sharbat". (188-bet).

Kuloch. Bu yemak turi o'z qatlamga oid. Uning bir ma'nosi lug'atlarda: 1. Holvaga o'xshash bir tur shirinlik. "Saddi Iskandariy" dostonida misoli bor:

Mabohot qilmas yemakdin kuloch,

¹¹² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 410-бет.

¹¹³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 272-бет.

¹¹⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 183-бет.

*G'amin bo'lmas ar topsa yovg'on umoch*¹¹⁵.

Shakar. Ajdodlarimiz qadimdan shakarqamish (nayshakar), lavlagi kabilardan shakar, qand olishni bilishgan. Bu soʻz tilimizga forschadan oʻzlashgan [f. < qad. hind. sakkhara — shagʻal, qum; qand uni] boʻlib, lavlagi yoki shakarqamish oʻsimligidan sanoat yoʻli bilan olinadigan oqsargʻish rangli qumsimon shirinlikni anglatadi. Alisher Navoiy bu soʻzni oʻz maʼnosida va yorning labi sifati uchun oʻz sheʼriyatida koʻp qoʻllagan:

Soching rangi anbarmudur mushki chinmu,

*Labing ta'mi **shakarmudur** angabinmu?*¹¹⁶.

Nabot. Bu soʻz hozirda tilimizda novvot shaklida qoʻllandi. Bu shirinlik OʻTILda shunday izohlangan: NOVOT I [forscha nabot – kristall shaklli qand, shakar] Shakar qiyomidan maxsus tayyorlanadigan yaltiroq kristall qattiq oq yoki sargʻish shirinlik. (3 j., 46-bet).

“Farhod va Shirin”dostonida bu soʻz ishtirokida shunday bayt uchraydi:

Qo'yub ul hinduyi tojir sifoti,

*Shakar tungida **Hinduston naboti**.*

***Naboti Hind** yo'qkim, g'unchai gul,*

*Qilib devona Aqli Kullni bilkul*¹¹⁷.

Sheʼriy parchadagi **tung** – idish maʼnosini bildiradi. Bu yerda shoir Sharqda mashhur boʻlgan Hindiston novvoti solingan shakkar idish deb Shirinning ogʻzini taʼriflamogʻda.

Bol – asal – shahd. Birinchi soʻz turkiy tilga mansub boʻlsa, keyingi ikkisi arab tilidan oʻzlashgan. Bobomiz Navoiy oʻz ijodida bu sinonimik qatordan unumli foydalangan:

Har kimsa kim aylamas oshiqmogʻni xayol,

*Yafrogʻin ipak qilur, chechak bargini **bol**. (“Mahbub ul-qulub”dan).*

“Zanbur gʻavgʻosidin nishmutasavvardur va **asal** savdosidin noʻsh muyassardir (“Mahbub ul-qulub”dan).

¹¹⁵ Navoiy asarlari luʼgati. 321-bet.

¹¹⁶ Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tʼjplami. 2-jild, 662-bet.

¹¹⁷ Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tʼjplami. 8-jild, 261-bet.

Mana bu baytda o‘zaro sinonim so‘zlar birga ishlatilgan:

Shahdi labing ostida qo‘yay xol,

Ul nuqta kibiki yozsalar bol. (“Layli va Majnun”)

Alisher Navoiyning mashhur tuyug‘ida shirinlik nomi bilan bog‘liq juft so‘zlar qo‘llanishining buning ajoyib namunasini ko‘ramiz:

Yo rab, ul shahdu shakar yo lab mudur?

Yo magar shahdu shakar yolabmudur?

Jonima payvasta novak otqoli,

G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabmudur¹¹⁸.

Bodom mag‘zi. O‘TILda bodom o‘zlashma so‘z sifatida shunday izohlanagan: BODOM [f. - bodom] 1 Atirgullilar oilasiga mansub, sermoy mag‘zi iste‘mol qilinadigan daraxt. 2 Shu daraxtning mevasi (danagi). (1 j., 295).

Bodom so‘zi O‘TILda forscha o‘zlashma deb ko‘rsatilgan, lekin E.Teneshev, G.Blagova va boshqalarning “Sравnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov” asarida bu so‘z turkiy ekanligi ko‘rsatilgan¹¹⁹.

“Nasoyim ul-muhabbat”da **bodom mag‘zining** taom nomi sifatida qo‘llanganini ko‘ramiz: “Ibriq qoshida ikki uluq qurs ko‘rdum, issig‘ va ko‘p **bodom mag‘zi**. Alarni ko‘tardim va aning qoshig‘a elttim. Qursni ushatti va bodom mag‘izlarin mening ilayimga to‘kdi. Va dediki, yegil! Va ul bodom mag‘izlaridin manga berur erdi va men yer erdim. Va men ul taomda g‘arib huzur topar erdim”¹²⁰.

Bodom shirasi, qiyomi (shirai bodom). Misol:

Anga ichmak bo‘lub nokom yanglig‘,

Mavizu shirai bodom yanglig‘¹²¹.

Qursi gazak. Bu taom nomini anglatuvchi birikma ANATILda shunday izohlangan: “aylana, tugarak shakldagi gazak (zakuska)”. (4 j. , 80-bet). Navoiy she‘riyatida uchraydi:

¹¹⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд, 92-бет.

¹¹⁹ Тенешев Э., Благова Г. и др. “Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков” Москва: Наука, 2001. –С.151.

¹²⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд, 411-б.

¹²¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 8-жилд. 71-бет.

Bazmi bo‘lib gulshani axzar kibi,

Qursi gazak har sari axtar kibi.

Gazak – may ichganda ketidan yeyiladigan oz miqdor ovqat yoki shirinlik, zakuska: “Qilib may aro nayshakardin gazak” (NAL, 154-bet). O‘TILda: **gazak** [f. – musallas, sharob ichilgandan keyin yeyiladigan yengil ovqat; *gazidan* – «tishlamoq» fe‘lidan] Ichkilikdan keyin yeyiladigan yegulik; ishtaha ochar yengil ovqat. **Gazak qilmoq** yemoq, tanovul qilmoq. (1 j., 475-bet.).

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida “Noqobil sadrlar zikrida” fikr yuritganda gazak so‘zini uchratamiz: “Ulamo kelturgan gulob shishalariki xoli qolib, boda solurg‘a ani mulozimlari olib. Bu kelturgan *nabot gazak uchun ushalib*, vazifa vajhlari o‘zga asbob uchun sayg‘olib. Badkirdor anda g‘alaba va poykor anda talaba”¹²².

“Sabbai sayyor” asarida hind tiliga mansub ikkita taom nomi aniqlandi: amna (umna) va tanbul.

Qo‘ydi bozor ichiga chunki qadam,

Shoh bazmi uchun birov ul dam.

Toslar soz etib edi maqbul,

Nechada *umna*, nechada *tanbul*.

Amna, umna (mango), tanbul – Hindistonda xush bo‘y yaproqlardan tayyorlanadigan maxsus ovqat.

Ikkinchi bobning xulosasi

Alisher Navoiy asarlaridagi o‘zbek shevalaridan to‘plangan oziq-ovqat taom nomlarini leksik-semantik jihatdan guruhlariga bo‘lib o‘rganildi: 1. Qanday mahsulotlardan tayyorlanishiga ko‘ra atalgan taom nomlari. 2. Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari.

Taom nomlarining leksik-semantik guruhlari o‘z ichida xilma-xil turlarga va kichik guruhlariga bo‘linib, ular o‘sha taom nomlarining qanday mahsulotdan tayyorlanishi va biror marosimga mo‘ljallanishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqqan. 5. Navoiy asarlari tilida qayd etilgan ayrim oziq-ovqat – taom nomlari

¹²² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд, 12-бет.

hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydi. Uchramaydigan qismi esa o‘zbek shevalarida birmuncha yaxshiroq saqlanib qolgan. Masalan: *chalrak*, *shulon*, *bulamog‘ – bulamiq (atala)*, *falla (palla, uviz)*, *panir(pishloq)* kabi.

Navoiy asarlari tilidagi ba'zi taom nomlarida ma'no jihatdan torayish, kengayish kabi omillar uchragan, bu hodisalar jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat, taom nomlari bilan hozirgi o‘zbek adabiy tili, ba'zi o‘zbek shevalarida qo‘llanadigan shunday nomlarni qiyoslar ekanmiz, ko‘p yillik davr ichida taom nomlari takomillashib borganini kuzatamiz. Bu takomillashish tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida va boshqa tillarning ta'siri ostida ro‘yobga chiqqan. Ayniqsa, arab, fors-tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan taom nomlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O‘rganilayotgan manba tilidagi taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida, ularning fonetik, variantlilik hodisalari, shuningdek, ayrim ma'no farqlari aniqlandi.

To‘plangan taom nomlarining tarkibi va ma'nolariga qarab aytish mumkinki, ularning ko‘pchiligi umumxalq tili vositasida yuzaga kelgan, ayrimlarining asosiy ma'nosini faqat etimologik tahlillar orqali bilish mumkin.

XULOSA

Navoiy ijodi, uning kelajak avlodlarga qoldirgan merosi bu juda ulkan, hiech qachon tugamaydigan shu bilan birga eng muhim boyliklarga ega xazina hicoblanadi. Uning asarlari qatida yashiringan hikmatlarning o‘zi bir olam bo‘lsa, Navoiy qo‘llagan leksik birliklarning har biri bizga tilimiz tarixidan so‘zlashi bilan qadrlidir. Oziq-ovqat nomlari bugun turli nomlar bilan ifodalanadi. Shulardan bir qator nomlar esa Alisher Navoiy asarlarida uchraydi va ular bizga XV asrdagi oziq-ovqat leksikasi haqida xabar beradi.

Ushbu tadqiqot ishimiz natijalari bo‘yicha uyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘rganilayotgan manba taom nomlarining asosiy qismini umumturkiy, o‘zbek tilidagi oziq-ovqat nomlari tashkil qiladi: o‘tmak, chalpak, ko‘moch, kuloch, umoch, jug‘rot, qatlama, quymog‘, tutmoch, ushoq osh, bulamog‘, bug‘ro, jijig‘lig‘ osh, qovurmoch, tolqon, sut, suzma, qaymoq, qatiq, panir, qimiz, qurut, yog‘, sarig‘ yog‘, et, qo‘y uchasi, uloba, urkamoch, so‘kboch, qazi, shilon.

2. Fors tilidan o‘zlashgan oziq-ovqat nomlari ham Navoiy asarlarida faol qo‘llangan. Ularning miqdor jihatdan turkiy taom nomlaridan keyingi o‘rinni egallaydi: non, osh, shir, falla, kabob, bat kabob, pushti dunba, nabot, poludai dushob, maviz, mavizob, shirai bodom, sho‘rba, harisa, gazak.

3. Arab tilidan o‘zlashgan taom nomlari asosan shirinlik va qandolat mahsulotlarini ifodalagan: qurs, asal, shahd, fatir, halvo, halim, tiranjabin, sikanjabin.

4. Taom nomlarining leksik-semantik guruhleri o‘z ichida xilma-xil turlarga va kichik guruhlarga bo‘linib, ular o‘sha taom nomlarining qanday mahsulotdan tayyorlanishi va biror marosimga mo‘ljallanishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqqan.

5. Navoiy asarlari tilida qayd etilgan ayrim oziq-ovqat – taom nomlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydi. Uchramaydigan qismi esa o‘zbek shevalarida birmuncha yaxshiroq saqlanib qolgan. Masalan: *chalrak*, *shulon*, *bulamog‘* – *bulamiq* (atala), *falla* (*palla*, *uviz*), *panir*(*pishloq*) kabi.

6. Yozma yodgorliklar tilidagi ba'zi taom nomlarida ma'no jihatdan torayish, kengayish kabi omillar uchraydiki, bu hodisalar jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir.

7. Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat, taom nomlari bilan hozirgi o'zbek adabiy tili, ba'zi o'zbek shevalarida qo'llanadigan shunday nomlarni qiyoslar ekanmiz, ko'p yillik davr ichida taom nomlari takomillashib borganini kuzatamiz. Bu takomillashish tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida va boshqa tillarning ta'siri ostida ro'yobga chiqqan. Ayniqsa, arab, fors-tojik va boshqa tillardan o'zlashgan taom nomlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

8. Navoiy asarlari tilidagi oziq-ovqat, taom nomlarini o'rganish bilan birga, shirinlik va qandolat nomlarining ham talqini keltirildi.

9. O'rganilayotgan manba tilidagi taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida, ularning fonetik, variantlilik hodisalari, shuningdek, ayrim ma'no farqlari aniqlandi.

10. To'plangan taom nomlarining tarkibi va ma'nolariga qarab aytish mumkinki, ularning ko'pchiligi umumxalq tili vositasida yuzaga kelgan, ayrimlarining asosiy ma'nosini faqat etimologik tahlillar orqali bilish mumkin.

11. Taom nomlari morfologik (chalpak, ko'moch, kuloch, qatlama, tutmoch) sintaktik (jigar kabob, jijig'lig' osh) va semantik (osh) usulda yasalgan. Taom nomlarining qancha so'zdan tashkil topishi, bog'lanish usullari, komponentlari orasidagi munosabatlar rang-barang bo'lib, o'zbek tilida so'zlarning bog'lanishi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. - 2008. - 176 b.
2. Abdiyev M. Kasb-hunar atamalarining tarkib topishida so‘z yasashning semantik usuli // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2002. – №5. – B. 41-43.
3. Abdullayev F. Arabizmy v uzbekskom yazыke. Diss. ...kand. filol. nauk. –T., 1945; Ivanov S.N. Arabizmy v turetskom yazыke. –L., 1973; Dmitrev N.K Arabskie elementy v bashkirskom yazыke//Stroy tyurkskix yazыkov. –M., 1977. -S. 189-201.
4. Abdullayev F. XV asr o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalasi//Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. –T.: 1968. –B. 254.
5. Abdushukurov B. «Qisasi Rabg‘uziy» leksikasi. Filol. f. d....diss. avtoreferati. –T.: 2017.
6. Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: ToshDU, 1983, 14-15-b.
7. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1994. – B. 115.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 1985. T.IV. –
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 1-jild. -T.: Fan, 1987.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 2-jild. -T.: Fan, 1987.
11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 3-jild. -T.: Fan, 1988.
12. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 4-jild. -T.: Fan, 1989.
13. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 5-jild. -T.: Fan, 1990.
14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 6-jild. -T.: Fan, 1990.
15. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 7-jild. -T.: Fan, 1991.
16. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 8-jild. -T.: Fan, 1991.
17. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 9-jild. -T.: Fan, 1992.
18. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 10-jild. -T.: Fan, 1992.
19. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 12-jild. –T.: Fan, 1996.
20. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 13-jild. -T.: Fan, 1997.

21. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 14-jild. -T.: Fan, 1998.
22. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 15-jild. -T.: Fan, 1999.
23. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildli. 16-jild. -T.: Fan, 2000.
24. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. -T.: Fan, 1983. -365 b.
25. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. -T.: FAN, 1983. 157 b.
26. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -T.: Fan, 1985. - 200 b.
27. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -T.: FAN, 1985. 198 b.
28. Dadabayev X. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV vv. -T.: Yozuvchi, 1991. -S. 136.
29. Dadaboyev H. “Devonu lug‘atit turk”ning til xususiyatlari. -T.: TDSHI, 2017, 66-75-betlar.
30. Dadaboyev H. “Devonu lug‘atit turk”ning til xususiyatlari.-T.: TDSHI, 2017. - B.72.
31. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. -T.: Fan, 2008. -B. 116.
32. Do‘stjanov B. Xorazm taomlari. - T.: O‘zbekiston, 1994. - 88 b.
33. Hamroqulova B. Surxondaryo vohasida bola tug‘ilishi va tarbiyasi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar (XI-Xasr oxiri-XXasr boshlari). Dissertatsiya qo‘lyozmasi. -T.,2002.-B.57.
34. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. -T.: 1974. -308 b.
35. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -T.:2002. -168 b.
36. Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1983. - 168 s.
37. Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. - Toshkent, 1983. - S. 90.
38. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. -T.: O‘zFA nashriyoti, 1960.

39. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. II tom. –T.: O'zFA nashriyoti, 1960.
40. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. III tom. –T.: O'zFA nashriyoti, 1963.
41. Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. – T.: Mehnat, 1989. – 342 b.
42. Navoiy asarlari lug'ati. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 568 b.
43. Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. -T.:1989. -B.226.
44. Mamajonova G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari. –T.: FAN, 1978. 87 b;
45. Muhammad Yusuf Chingiy. “Kelurnoma” – Toshkent: Fan, 1982. – B. 79.
46. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. –T.: O'qituvchi, 1995. – B. 89-90.
47. Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1972.
48. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I jild.. –T.: Fan, 1983.
49. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. II jild.. –T.: Fan, 1983.
50. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III jild. -T.: Fan, 1984.
51. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 111-123.
52. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.: O'zbekiston, 2002, 232 b.
53. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1 j. –T.: Universitet, 2000. –B. 409.
54. Qurbonova M. Buxoro vohasi o'zbek va tojiklarining an'anaviy taomlari: Tarix fanlari nomzodi ... dis. – T.: 1994. – 158 b.
55. Shaniyazov K. O traditsionnoy piще uzbekov // Etnograficheskoe izuchenie byta i kulturny uzbekov. – T.: 1972. – 106 s.
56. Shaniyazov K.Sh., Ismailov X.I. Etnograficheskie ocherki materialnoy kulturny uzbekov XIX nachalo XX v. T. 1981. S 114-115; Kultura i byt kazaxskogo kolxoznogo aula.

57. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov: Morfologiya. – M.: Nauka, 1988. 556 s.; XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili: Morfologiya. –T.: FAN, 1986. 286 b.
58. Teneshyev E., Blagova G. i dr. “Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov” Moskva: Nauka, 2001. –S.151.
59. Tog‘ayev T. Saxovat bog‘ining bog‘boni.// “Fermer” j., 2008 y., 10-11-son. – B.19-24.
60. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston, 1992. 399 b.
61. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1995. –B. 34.
62. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. –B. 91-92.
63. Xudayarova M. O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -T.: 2008.
64. Yo‘ldoshev I. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi. –T.: FAN, 2004. –B. 99.
65. Zaxidi A. Slova tyurkskogo proisxoјdeniya v sovremennom arabskom yazыke. Avtoref. dis. ...kand. filol. nauk. -Baku, 1967. –S. 7.
66. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-jild. Leksika. –T.: FAN, 1991. –B.152.
67. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-V jildlar. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 2007.
68. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati /Masul muharrir: Sh.Shoabdurahmonov. –T.: Fan, 1971.
69. G‘aybullayev S. Qorako‘l shevasining tarovati. –T.: Nihol, 2017.

ILOVA

amna, umna (mango) – Hindistonda xushbo‘y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat.

bat kabob – o‘rdak kabob

bug‘ro – bug‘doyni oqlab pishiriladigan va katta yig‘inda tortiladigan ovqat.

bulamog‘ – bulamoq, atala

falla – yangi tuqqan hayvonning dastlabki suti, og‘iz (uviz)ga foydalaniladigan sut.

fatir – patir

gazak – gazak

halvo – holva

halim – halim

harisa –halim,, ko‘pchilikka go‘sh va bug‘doydan pishirilgan ovqat jijig‘lig‘

osh – go‘ja osh

jug‘rot – qatiq

kabob – kabob

kuloch - 1. Holvaga o‘xshash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va

ko‘moch/kumoch – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non.

maviz – mayiz

mavizob – mayiz suvi, sharbat

manti – manti

nabot –novvot

ovqatning bir turi, 624-b.)

panir – qo‘y sutidan tayyorlangan pishloq

poludai dushob –asl, toza shinni, uzumdan qilingan toza shinni

pushti dunba – dumba yog‘i

qazi – qazi

qaymog‘ – qaymoq

qaymoq solib qilingan kulcha.

qatiq – qatiq

qatlama – qatlama (ANATIL, 4 j. 40-b.)
qimiz – qimiz
qovurmoch – qovurmoch, qovurilgan don, bo‘g‘doy
qo‘y uchasi – qo‘yning biqin go‘shti
quymog‘ – quymoq
qurs – kulcha
qursi gazak – aylana, tugarak shakldagi gazak (zakuska)
qursi qiyr – qora kulcha.
qursi fatir – patir kulcha
qurut – qurut
sarig‘ yog‘ – saryog‘
sikanjabin – sirka murabbo
suzma – suzma
so‘kboch – so‘kosh
sut – sut
tanbul – Hindistonda xushbo‘y yaproqlardan tayorlanadigan maxsus ovqat.
taranjabin – yantoq shakari
tolg‘on – talqon
tutmoch – pishgan taom turi; xamir oshi, ugra osh.
uloba – ovqatlarning bir turi
umoch – ugra osh
urkamoch – taom turlaridan bir turi
o‘tmak – non
ushoq osh – ugra osh, tuppa
yog‘ – yog‘
shakar – shakar
shahd, asal –bol
chalpak – chalpak
shilon/shulon – umumiy ovqat; podshoh ziyofati
shir – sut
shirai bodom – bodom shirasi, qiyomi
sho‘rba – sho‘rva